

Kuch – bilim va tafakkurda

Ma'rifat

Ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy nashr

1931-yildan chiqa boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2025-yil 24-sentabr chorshanba №38(9571)

Xalq ziyolilari gazetasi

O'qituvchi
nimani
o'ylaydi?




Doimo ta'lim tizimidan noliymiz. Xo'sh, bu tizimni kim yo'lga qo'yadi?

Uni siz va biz tashkil qilyapmiz. Bolaning maktabga bormasligiga, borsa ham do'ppidan kichkina sumkachani ko'tarib ketishiga qarshilik qilmay o'tirgan ota-ona, "menga nima, darsimni tugatib olsam bo'ldi" deb turgan pedagog ham shu tizimning ichida, uning vakili. O'zimizni isloh qilmaguncha ta'limni isloh qilib bo'lmaydi.

Rivojiddin NABIJONOV

Dilafro'z ABDURAJABOVA:

"QIZLARINGNI O'QIT-MANA ISBOTI"



"Endi qiz bola tug'lsa otalar uyalmaydi, xafa bo'lmaydi. Otalar qiz bola ham eplay olishini ko'rishdi".

2-3-betlar

Jarayon

Shunday edi doim bilim tavozu,
Ustoz ta'limidan yashnadi orzu.
Bir kishi dediki: "Bunda ne sir bor,
O'tadek ustozga ta'ziming bisyor?"
Dedi: u qormishdi suv bilan loyim,
Bunisi jon-dilim o'stirdi doim.
Bundan tanam bo'ldi

jonimga mezbon,
Undan abadiylik topdi ushbu jon.

Abdurahmon Jomiy

Ustoz nomi hamisha ulug'. Murg'aklikdan qariguncha o'rgatadi. U bilan olam go'zal va yorug'. Hayotda erishgan ko'plab muvaffaqiyatlarimiz sababchisi, to'g'ri yo'lga boshlovchi posbon, ota-onamizdek qadrdon qalqon, hayot yo'limizda o'rnak qahramon.

Ayni paytda yurtimizda o'qituvchilarga ko'rsatilayotgan hurmat-e'tibor, qo'llab-quvvatlash yo'lida olib borilayotgan sa'y-harakatlar qachonlardir bir orzu edi. So'nggi besh yil ichida o'tkazilgan islohotlarga nazar tashlasak, yildan yilga o'qituvchilarga bo'lgan munosabat yaxshilanganiga guvoh bo'lalimiz. 2024-yil 1-iyundan maktabgacha ta'lim tashkilotlarining oliy ma'lumotli pedagog xodimlarining bazaviy tarif stavkalarini umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi pedagog xodimlarning tegishli stavkalariga tenglashtirildi. 2024-yil 1-fevraldan esa "O'qituvchining maqomi to'g'risida"gi qonun kuchga kirdi. Bu qonun o'qituvchining kasbiy faoliyatini kafolatlash, ijtimoiy himoya, huquqiy va tashkiliy sharoitlarni belgilaydi. Masalan, o'qituvchilarning hurmati, ularning professional faoliyatiga asossiz aralashuvning oldini olish, obro'-e'tiboriga putur yetkazilmasligi kabi jihatlar kafolatlanadi. O'qituvchilarning malaka oshirish kurslari kuchaytirildi, attestatsiya jarayoni yangilanib, pedagoglar muntazam ravishda malaka oshirish kurslariga jalb qilinmoqda.

2020–2024-yillar davomida pedagoglar o'rtacha ish haqi atigi 1 mln 545 ming so'm bo'lib, bunda bank, sug'urta, lizing va vositachilik faoliyati xodimlari ish haqi 8 mln 674 ming so'mgacha oshirilgan. 2024-yilning III chorak yakuni bo'yicha pedagoglar oylik maoshi 3 mln 484,7 ming so'mni tashkil etgan. 2025-yil 1-avgustdan oylik maosh 10 foizga oshirildi. Oshirilgan maoshlar bo'yicha hisoblaganda, umumta'lim maktabi o'qituvchilari quyidagicha maosh oladi:

2025-yil

- √ O'rta maxsus ma'lumotli o'qituvchi – 3 mln 468 ming 585 so'm;
- √ Oliy ma'lumotli o'qituvchi – 3 mln 729 ming 906 so'm;
- √ Ikkinchi toifali o'qituvchi – 4 mln 175 ming 834 so'm;
- √ Birinchi toifali o'qituvchi – 4 mln 653 ming 151 so'm;
- √ Oliy toifali o'qituvchi – 5 mln 142 ming 053 so'm.

O'tgan yillar bilan solishtirsak, 2024-yil


- √ O'rta maxsus ma'lumotli o'qituvchi – 3 mln 169 ming 623 so'm;
- √ Oliy ma'lumotli o'qituvchi – 3 mln 390 ming 824 so'm;
- √ Ikkinchi toifali o'qituvchi – 3 mln 796 ming 213 so'm;

“Qizlaringni o'qit –

- √ Birinchi toifali o'qituvchi – 4 mln 230 ming 138 so'm;
- √ Oliy toifali o'qituvchi – 4 mln 674 ming 594 so'm.

2023-yil

- √ O'rta maxsus ma'lumotli o'qituvchi – 2 mln 575 ming 884 so'm;
- √ Oliy ma'lumotli o'qituvchi – 2 mln 755 ming 648 so'm;
- √ Ikkinchi toifali o'qituvchi – 3 mln 085 ming 100 so'm;
- √ Birinchi toifali o'qituvchi – 3 mln 437 ming 741 so'm;
- √ Oliy toifali o'qituvchi – 3 mln 798 ming 941 so'm.



Joriy yil O'qituvchi va murabbiylar kuni arafasida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'lim sohasi vakillari bilan muloqotda yosh ustozlarning yuksak sa'y-harakatlarini alohida e'tirof etdi. Mamlakatimiz rivoji yo'lidagi kamtarona mehnatini rag'batlantirdi. Ulardan biri To'raqo'rg'on tumanidagi 37-maktab o'qituvchisi, iqtidorli muallima Nodira Nabiyevaga Prezident sovg'asi – BYD CHAZOR avtomobili tantanali tarzda topshirildi.

– Kuni kecha Yurtboshimizning tashabbusi bilan Ijtimoiy himoya milliy agentligida ham o'z ish faoliyatimni boshladim, – deydi ingliz tili fani o'qituvchisi Nodira Nabiyeva. – Kichikligimdan kitob o'qishni yaxshi ko'rganman. Olima bo'lish orzum edi. Ota-onam mendan umidlari kattaligini ko'p aytishgan. O'qituvchi bo'lishni ham yoshligimdan tanlaganman. Qo'g'irchoqlarimni qo'yib ularga dars o'tardim. Adabiyot ko'p o'qirdim. Navoiy, Lutfiy, Boburni olasizmi, o'qib, men ham dunyodan o'tganimda kitoblarda rasmim, asarlarim qoladi, avlodlarim ko'radi derdim. Avlodlar xotirasida, kitoblarda qolish yo'lida harakatdaman.

Kichik-kichik orzularim keyinchalik ilmiy faoliyatga qiziqirdi, tanlovlarida qatnashdim. Lekin eng muhimi, ilm o'rganish menga yoqadi. Maktabda faqat a'lo baholarga o'qish bilan chegaralanib qolmay, ijtimoiy loyihalarda qatnashardim, “Kamalak” bolalar tashkilotining tuman sardori bo'lganman. “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining

viloyat kengashi matbuot kotibi, viloyat sardori bo'lganman. Yoshlar ittifoqi bo'lgach, “Munozara” respublika klubining Namangan viloyati koordinatori vazifasida ishladim. Namangan davlat universitetida o'qish chog'ida rektorimiz Sobitxon Turg'unov rahbarligida har bir bo'limda talaba rektor lavozimi joriy etilib, unda asosiy dekandan tashqari talaba dekan bo'lishi kerak edi. Birinchi bo'lib ingliz filologiyasi fakulteti talaba dekan lavozimida 3500 mingdan ortiq talabaga javobgar shaxs bo'lganman.

Tanlovlarda qatnashish, musobaqalashish yoqadi. Yoshligimda Zulfiya nomidagi davlat mukofotini olgim kelgan. “Zulfiyachi qiz” rasmini gazetadan qirqib olib, ular nima qilyapti deb qiziqqanman. Bilimim oshgani sari tushunib yetdimki, bu tanlovlar menga o'xshagan Nodiralarni tarbiyalash uchun ekan. Shu mukofotga mehrim ko'proq o'z ustimda ishlashga undadi. Asosiy maqsad mukofot emas, bilim, ungacha bo'lgan yo'l muhimligini tushundim.

Ota-onam ham oliy ma'lumotli insonlar. Onam boshlang'ich sinf o'qituvchisi bo'lgan, doim meni qo'llab-quvvatlagan. “Bu ishni qilolmaysan, oddiy oiladansan, tanishing yo'q” deyishganida ham onam “Bir narsani xohladingmi, Olloh xohlagani uchun qalbingga solgan. Oxirigacha bor, kuching yetganicha qil, qolganini Yaratganga tavakkal qil” der edi. Onamning hayotimda roli katta, motivatsiya, energiya, ruh beradi. 1-sinfga chiqqanimda o'qish, yozishni bilardim, alifbe kitoblarni tugatgandim.

Yoshligimda Zulfiya nomidagi davlat mukofotini olgim kelgan. “Zulfiyachi qiz” rasmini gazetadan qirqib olib, ular nima qilyapti deb qiziqqanman. Bilimim oshgani sari tushunib yetdimki, bu tanlovlar menga o'xshagan Nodiralarni tarbiyalash uchun ekan. Shu mukofotga mehrim ko'proq o'z ustimda ishlashga undadi. Asosiy maqsad mukofot emas, bilim, ungacha bo'lgan yo'l muhimligini tushundim.

Shuning uchun boshlang'ich sinfda zerrikkanman. Sentabrda yuqori sinf darslik kitoblarini oldindan olib, o'qib tugatib chiqardim. 14 yoshimdan beri repetitorlik qilaman. 500 dan ortiq o'quvchilarim o'qishga kirgan. Ingliz tili va ona tilidan dars berardim. Hozir maktabimizda 10 nafar ingliz tili fani o'qituvchisi bo'lsa, ularning 4 nafari shogirdlarimdir. Har darsda yangi metodikalar bilan dars o'tishga harakat qilaman. Yangi narsalar kashf qilib, qalam, oddiy baktashka qopqog'idan ham bir nimalar o'yab topib yasayman.

– “Inglizcha-o'zbekcha surdo lug'at” tuzishingizga nima turtki bo'ldi?

– Bu lug'atda chet el (ingliz tili)dagi surdo til bilan O'zbekistondagi gaplashiladigan surdo – imo-ishora tilini moslashtirib tartiblab chiqqanman. U 1000 ta so'zni o'z ichiga oladi. O'zbekistonda sog'lom bolalar til o'rganishiga barcha imkoniyat yetarli. Biroq 2019-yili Ichan-qal'ada o'tkazilgan “O'zbekiston bahor ijodiyoti” festivaliga borganimda, eshitmaydigan, gapirmaydigan rassom qizga tarjimonlik qilganimda imkoniyati cheklangan bolalarga ingliz tili darsi o'tilmasligini bildim. U qizning aqli butun, tafakkuri teran, sog'lom fikrli edi. Shunda bu sohaga qiziqib qolganman. Magistrlik ishinni shu mavzuda qilishimga ko'p qarshiliklar bo'lgan. Tiri-shib, oxirigacha boraman deganimdan so'ng ustozim professor Botirjon Jafarov ilmiy rahbarlik qilgan. Boshida rostdan natija chiqarishga qiynalganmiz, lekin sekin-asta o'z mevasini berib kelmoqda.

– Ayni damda o'qituvchilik kasbi mavqeyini qanday baholaysiz?

– Bugungi kunda O'zbekistonda eng rivojlangan kasblardan biri pedagoglik. Sababi, o'qimasdan hech narsaga erishib bo'lmayligini hamma tushunib yetdi. Tadbirkorlik uchun ham o'qish muhimligini tushunishdi. Atrofimizga qarasa, har bir oila farzandini yaxshi bog'cha, kuchli maktab, AT, til kurslarida o'qitgisi keladi. Najot – ta'limda ekanligini angalaypmiz. Bo'lib o'tgan selektorda Prezidentimiz jamiyatimizda o'qituvchilar darajasini 5–10 baravarga ko'tarib qo'ydi.

– Prezidentimiz bilan uchrashuvdan olgan taassurotlaringiz?

– Uchrashuvda meni yig'latgan eng ta'sirli holat oddiy qishloq qizi – ismimning keltirilishi, davlat rahbari o'z nutqida men bilan faxrlanishi, ota-onamga rahmat aytishi bo'ldi. Buni o'sha joyda mening holatimga tushgan insongina biladi. Sababi, qishlog'imizda qiz bolani haligacha ko'pchilik o'qitmaydi. Yigitlardan ham o'qiganlari kam. Dadamga ham ko'p qarshilik bo'lgan. “Qiz bolani o'qitib nima qilasan, ertaga turmushga berib yuborasan. Undan ko'ra mashina ol, uyingga qara” degan gap-so'zlar ko'p bo'lgan. Lekin dadam orzu-havasli inson edi. Bizni musiqa, gimnastika to'garaklari, kurslarga olib borgan. Uch opa-singil yoz bo'yi turli viloyatdagi lagerlarga borib, o'qimishli, o'zimiz tengi yoshlar bilan suhbatlashardik. Dadam yutuqqa erishgan qizlarga havas qilgan. Uchalimizda ham ota-onamga munosib

mana isboti”



farzand bo'lib, imkoniyatning qadriga yetib, shuni qaytara olish mas'uliyati bo'lgan. Dadam: “Mening qizlarim hali Prezidentimiz oldida yuradigan qizlar bo'lishadi”, derdi. Shu narsa meni yig'latdi.

Mashinaning missiyasi bor ekan. Qishloqqa xursand bo'lib, suyunchilab, signalini chalib bordik. Mashina signali

kum, TOP-10 ta OTM pedagoglariga yiliga bir marta O'zbekiston bo'ylab sayohat qilish uchun samolyot va poyezdlar chipta narxlariga 15–20 foiz chegirma beriladi;

➤ yangi yildan boshlab kamida 15 yil stajga ega bo'lgan oliy toifali pedagoglarga ipoteka krediti boshlang'ich badalining 25 foizi qoplab beriladi;

Mashina signali har bir xonadonga chaqiriq bo'ldi: “Sen farzandingni o'qit, qizlaringni o'qit – mana isboti” degandek bordi. Dadam yig'ladi... Ota-onangizning sizdan minnatdorligini his qilish – katta baxt. Tushga o'xshaydi. Prezidentimizning birgina e'tibori ham o'qituvchilarning hurmati, ham qizlarning obro'yini oshirdi. Endi qiz bola tug'lsa otalar uyalmaydi, xafa bo'lmaydi. Otalar qiz bola ham eplay olishini ko'rishdi.

har bir xonadonga chaqiriq bo'ldi: “Sen farzandingni o'qit, qizlaringni o'qit – mana isboti” degandek bordi. Dadam yig'ladi... Ota-onangizning sizdan minnatdorligini his qilish – katta baxt. Tushga o'xshaydi. Prezidentimizning birgina e'tibori ham o'qituvchilarning hurmati, ham qizlarning obro'yini oshirdi. Endi qiz bola tug'lsa otalar uyalmaydi, xafa bo'lmaydi. Otalar qiz bola ham eplay olishini ko'rishdi. Bu faqat mening yutug'im emas, Namangan viloyati ta'lim sohasining yutug'i bo'ldi.

O'qituvchilar uchun xushxabar

Prezident Shavkat Mirziyoyev pedagoglarni yanada qo'llab-quvvatlashga qaratilgan yangi tashabbuslarni ilgari surdi. Unga ko'ra:

➤ kelgusi o'quv yilida davlat OTMlariga o'qishga kirgan pedagoglar farzandlarining kontrakt summasiga 30 foiz chegirma beriladi;

➤ boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari uchun ham milliy sertifikat berish tizimi joriy qilinadi. Sertifikat olganlarga har oyda 15 foiz ustama to'lanadi;

➤ bakalavr bosqichini imtiyozli diplom bilan bitirib, maktabga ishga kirganlarga avtomatik ravishda 2-malaka toifasi, magistr'larga esa 1-malaka toifasi beriladi;

➤ dunyodagi TOP-300 talik OTM-larga o'qishga kirgan pedagoglarga 20 ming dollargacha imtiyozli ta'lim krediti ajratiladi;

➤ reytingda 100 talikka kirgan maktab va bog'cha, 20 talikdagi texni-

➤ o'qituvchilar yangi ta'lim texnologiyalarini keng qo'llashi uchun kompyuter xaridiga 10 million so'mgacha imtiyozli kredit ajratiladi;

➤ kelasi yildan pedagoglar uchun davlat xizmatlari to'lovi 2 karra kamaytiriladi.

Munosabat

– 15-sentabr kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning pedagoglar bilan o'tkazgan samimiy muloqoti quvonchli yangiliklarga boy o'tdi, – deydi Xalq deputatlari Forish tuman kengashi deputati, boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi Guljahon Egamqulova. – Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari uchun milliy sertifikatlar joriy etilishi haqidagi yangilik biz, ustozlar, uchun katta tuhfa bo'ldi. Shu paytgacha boshlang'ich sinf o'qituvchilari fanlar kesimida(matematika va ona tili) sertifikat olib, ustama olish imkoniyatiga ega edi. Endi esa aynan o'z yo'nalishimiz bo'yicha – boshlang'ich ta'lim milliy sertifikati joriy etilishi mehnatimizga berilayotgan yuksak e'tibor. Milliy sertifikatga ega ustozlar oylik maoshiga qo'shimcha 15 foiz ustama to'lanishi ham pedagoglarning o'z ustida yanada ko'proq ishlashiga rag'bat beradi. Bunday islohotlar ta'lim sifatini oshirish, ustozlarni qo'llab-quvvatlash va yosh avlodni tarbiyalashda yangi imkoniyatlar eshigini ochadi. Bu nafaqat men, balki respublika bo'yicha 125 ming boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari uchun bayram tuhfasidir.

Dilafro'z ABDURAJABOVA,
“Ma'rifat” muxbiri



Keyingi yillarda mamlakatimizda ustoz va murabbiylarning nufuzi oshishi, mehnati munosib rag'batlantirilishi yo'lida amalga oshirilgan ishlar ta'lim tizimida tub burilish yasadi. Bugun o'z ustida ishlab, malakasini oshirgan o'qituvchilar 10-12 million so'm atrofida maosh olyapti. Bu – kechagi orzu emas, balki haqiqat.

Maktab direktori va bog'cha mudiralarining oyligi 10 million so'mdan oshib, baholash tizimida ijobiy natijaga erishgan jamoalar 40 foizgacha ustama olayotgani ham sohaga berilgan e'tiborning yorqin isbotidir. Olimpiadalardagi yutuqlar, o'quvchi va murabbiylarga ajratilayotgan milliardlab so'm mukofotlar ta'limning natijadorlik mezoniga aylanayotganini ko'rib turibmiz. Ta'limdagi yutuqlar maktabgacha ta'limdan boshlanadi. Bu borada qamrov 2017-yili atigi 27 foizni tashkil etgan bo'lsa, hozir bu ko'rsatkich 78

ta'limning shaffofligi va natijadorligida muhim o'rin tutadi. Qabul jarayonlari, mikrohududlarni aniqlash, davomat va baholash tizimini to'liq elektron formatga o'tkazish korrupsiyani keskin kamaytiradi. Ustoz mehnatiga adolatli bahoni ta'minlaydi.

Maktabimizda ham shu yo'nalishda aniq qadamlar tashlanmoqda: har bir o'quvchining shaxsiy raqamli portfoliosi shakllantiriladi. Uning to'garak, olimpiada, sportdagi natijalari elektron shahodatnomada aks ettiriladi. Bu nafaqat bola uchun, balki uning ota-onasi

Yangilanayotgan ta'lim – ertamiz poydevori

foizdan yuqori. Mamlakatimizdagi deyarli barcha mahallalarda bog'chalar faoliyat ko'rsatmoqda. “Yangi avlod” bog'chalari tashkil etilishi, “1+5” tizimi orqali tarbiyachilarni ishdan ajralmagan holda oliy ma'lumotga ega qilish, xususiy bog'chalarga imtiyozlar berilishi – barchasi kelgusida bog'cha tarbiyasi sifati mutlaqo yangi bosqichga ko'tarilishidan dalolat beradi.

Prezidentimiz tomonidan maktab ta'limidagi dolzarb masalalarga alohida e'tibor qaratilib, olis hududlarda haligacha minglab bolalar uzoq yo'l bosib maktabga qatnayotgani, 2 mingdan ortiq sinfxona kompyuter, 6 mingdan ziyod interaktiv doskaga ehtiyoj borligi, axborot texnologiyalari va sun'iy intellekt fanlarini o'qitish zarurligi ta'kidlandi. Ayni paytda iqtidorli o'quvchilar uchun ixtisoslashgan maktablar soni keskin oshirildi. Ularning natijalarini hududiy OTMlar bilan bog'lash orqali yoshlarimizga keng imkoniyat eshiklari ochilyapti. Bu, shubhasiz, Yangi O'zbekiston yoshlarini global raqobatga tayyorlashda muhim qadam bo'ladi.

Maktab direktori sifatida bugun bizdan faqat o'quv jarayonini tashkil qilish emas, balki bolani to'liq shaxs sifatida tarbiyalash talab etilmoqda. Maktabdan tashqari ta'limda “Kelajak” markazlari tashkil etilishi bolalarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, qiziqish va iqtidorini rivojlantirishga xizmat qiladi. Prezidentimiz tomonidan ta'lim tizimining yana bir hal qiluvchi bo'g'ini – kasbiy ta'lim va texnikumlar masalasiga ham e'tibor qaratildi. Ayni paytda 598 ta texnikum mavjud bo'lsa-da, ulardagi imkoniyatlardan to'liq foydalanilmayapti.

Prezidentimiz tashabbusi bilan “Investor – tarmoq – texnikum” zanjiri asosida kadrlar tayyorlash, dual ta'limni keng joriy qilish, xorijiy standartlar va til o'qitish soatlarini ko'paytirish, bitiruvchilarga xalqaro sertifikat berish tizimi yo'lga qo'yilishi – mamlakatimizda mehnat bozori talabiga to'liq mos kadrlar tayyorlashga asos bo'ladi. Albatta, raqamlashuv jarayoni ham

va kelgusida ish beruvchilar uchun ham ishonchli manbaga aylanadi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, “Ta'lim sifati yuqori bo'lgan mamlakatda iqtisodiyot barqaror o'sadi”. Shu bois maktab rahbarlari sifatida oldimizga quyidagi vazifalarni qo'ydik: har bir o'quvchi uchun shaxsiy rivojlanish xaritasini tuzish; maktablarni STEM va SI yo'nalishlarida loyihalar markaziga aylantirish, mahalliy ish beruvchilar bilan hamkorlikda dual ta'limni sinovdan o'tkazish; o'qituvchilar malakasini milliy va xalqaro sertifikatlar orqali baholash hamda rag'batlantirish. Bu jarayonda ayrim xavfli holatlarga ham e'tibor qaratmoq kerak. Maktab o'quvchilari o'rtasida telefondan ortiqcha foydalanish masalasi kun tartibiga chiqmoqda. Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, Fransiya, Xitoy kabi davlatlarda maktablarda telefondan foydalanish qat'iy taqiqlangan. Yaponiya va Janubiy Koreyada esa maxsus “raqamli intizom” dasturlari yo'lga qo'yilgan. Ilmiy izlanishlar ham dars vaqti telefon ishlatish diqqatni susaytirib, o'quvchining bilim olish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishini isbotlaydi. Shu xalqaro tajribadan kelib chiqib telefondan foydalanishni tartibga solishimiz lozim. Bu masala nafaqat ta'lim samaradorligi, balki yoshlarimizning ma'naviy va ruhiy sog'lomligi uchun ham muhimdir.

Davlatimiz rahbari o'qituvchi va murabbiylar bilan muloqotida ta'lim va tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan ishlar Uchinchi Renessans poydevorini qurayotgan ulkan harakat ekanini ta'kidlab, ustozlarga sog'liq, kuch-g'ayrat va katta muvaffaqiyatlar tiladi. Bu so'zlar ta'lim xodimlari uchun nafaqat ilhom beradi, balki mas'uliyat yuklaydi. Chunki har bir bolaning ko'zida Yangi O'zbekistonning kelajagi, har bir sinfdagi ertangi taraqqiyotning egalari turibdi.

Nargiza FAXRIDDINOVA,
Farg'ona tumanidagi
4-maktab direktori

Ta'lim va sport chorrahasida

Yoshlarni sportga jalb etish – sog'lom kelajak garovi

2020-yil holatiga ko'ra, mamlakatimiz aholisining bor-yo'g'i 19 foizi jismoniy tarbiya va sportga jalb etilgan edi. Buning aksi o'laroq nosog'lom turmush tarzi ham sezilarli darajada ortgan. COVID-19 pandemiyasi sog'lom turmush tarzining qanchalik muhimligini yaqqol ko'rsatib berdi. Shu bois, keyingi yillarda aholining sport bilan muntazam shug'ullanish ko'nikmasini oshirish bo'yicha keng qamrovli dasturlar yo'lga qo'yilmoqda. Natijalar esa ijobiy tomonga o'nglanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligi bergan ma'lumotga ko'ra, 2023-yilga kelib aholining 26,4 foizi muntazam sport bilan shug'ullanayotgani qayd etildi. Xususan, o'quvchi va talabalarning qariyb chorak qismi muntazam jismoniy mashg'ulotlar bilan bandligi ta'minlanmoqda. Bu boradagi ijobiy siljishga, shak-shubhasiz, hukumatimiz tomonidan qabul qilingan qarorlar, joylardagi tashkiliy ishlar katta hissa qo'shmoqda.

Ayni paytda aholini ommaviy sportga jalb etish uchun aniq vazifalar belgilab berilgan. Xususan, 2025-yilgacha sport bilan muntazam shug'ullanuvchi aholi ulushini 30 foizga yetkazish vazifasi qo'yilgan. Bu marraga erishish uchun joylarda keng targ'ibot va tashviqot ishlari, musobaqalar tashkil etish, infratuzilmani yaxshilash hamda rag'batlantirish tizimi joriy etilmoqda. Misol uchun, O'zbekiston bo'ylab 454 ta sport-ta'lim muassasasi (bolalar va o'smirlar sport maktablari) faoliyat yuritib, u yerda o'n minglab yosh sportchilar tarbiyalanmoqda. Ularning moddiy bazasini yaxshilash, malakali murabbiylar bilan ta'minlash doimiy e'tiborga olinmoqda.

Yoshlar orasida sportni keng targ'ib qilish bo'yicha eng yirik loyihalardan biri "Besh tashabbus olimpiadasi"dir. 2023-yili mamlakat bo'yicha ushbu olimpiada musobaqalarida 12 millionga yaqin yoshlar ishtirok etib, yuqori natijalarni ko'rsatdi. Musobaqa g'oliblarining mahallalarida 623 ta yangi sport maydonchasi qurilib, foydalanishga topshirildi. "Besh tashabbus olimpiadasi" doirasida yengil atletikadan tortib kurashgacha, futbol va shaxmatdan kibersportgacha sportning 13 turi bo'yicha musobaqalar va ko'plab yo'nalishlarda ijodiy tanlovlar o'tkazilmoqda. Bu musobaqalar 5 bosqichli tizimda – mahalla, tuman, viloyat, hudud va respublika miqyosida tashkil qilinib, eng iste'dodli yoshlarni kashf etish va rag'batlantirishga xizmat qilmoqda.

Hududlardagi sport maktablari faoliyatini takomillashtirish yuzasidan ham qator yangiliklar joriy qilinmoqda, jumladan, sport maktablarini ma'lum sport turlariga ixtisoslashtirish amaliyoti yo'lga qo'yilib, endilikda olimpiya va milliy sport turlariga moslashtirilgan maxsus mahorat maktablari tashkil etiladi. Bu mahorat maktablariga eng qobiliyatli 7–11-sinf o'quvchilari qamrab olinib, chuqurlashtirilgan sport tayyorgarligi bilan shug'ullanadi.

Iqtidorli sportchilarni saralab olish uchun yangi seleksiya tizimi ham joriy etilmoqda. Har bir mahallada yil davomida ikki marta musobaqa o'tkazilib, g'olib va iste'dodli yoshlar maxsus elektron ro'yxatga olinadi, so'ng ularni keyingi bosqichga – sport maktablaridagi maxsus guruhlariga jalb etish tizimi yo'lga qo'yiladi. Bu orqali bosqichma-bosqich rivojlanish mexanizmi yaratilib, iqtidorga ega yoshlar professional sportga bosqichma-bosqich yo'naltiriladi.

Shu o'rinda sport sohasida pedagog kadrlarni tayyorlashdagi o'zgarishlarga ham to'xtalib o'tish lozim. 2018-yili Jismoniy tarbiya va sport vazirligi tuzilgan bo'lsa, 2020-yilda u Yoshlar siyosati va sport vazirligi tarzida faoliyat yuritdi. 2024-yil 20-yanvardagi "Yoshlar siyosati va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident farmoniga muvofiq, Yoshlar siyosati va sport vazirligi ikki alohida tuzilmaga ajratildi: Yoshlar ishlari agentligi va Sport vazirligi tashkil etildi. Endilikda Yoshlar ishlari agentligi Vazirlar Mahkamasi tasarrufiga o'tkazildi va faqat yoshlar masalalari bilan shug'ullanadi, Sport vazirligi esa sport sohasi rivoji uchun mas'ul alohida idoraga aylandi. Ushbu tarkibiy o'zgarish davlat miqyosida sport sohasiga ko'proq e'tibor qaratish va mazkur sohada boshqaruvni takomillashtirish maqsadida amalga oshiril-

di. Sport vazirligi yangi tarkibda sportni rivojlantirish jamg'armalarini boshqarish, normativ-huquqiy hujjatlarini takomillashtirish va infratuzilma loyihalarini muvofiqlashtirish bo'yicha mustaqil vakolatga ega bo'ldi. Bu o'zgarishlar sport sohasida tezkor qarorlar qabul qilishni osonlashtirib, yoshlar siyosati va sport yo'nalishlari bo'yicha yanada samarali ishlashga zamin yaratadi.

Yangi tashkil etilgan Sport vazirligi qisqa fursatda oldida turgan dolzarb vazifalarni bajarishga kirishdi. 2024-yil boshida o'tkazilgan matbuot anjumanida 2023-yil yakunlari va 2024-yil rejalariga oid ma'lumotlar berildi: o'tgan yili yurtimizda 352 ta respublika sport musobaqasi o'tkazilgani qayd etildi, ammo ayrim hududlarda tuman va viloyat bosqichlari to'liq qamrab olinmagani tanqid qilindi. Shu munosabat bilan hududiy musobaqalarni tizimli yo'lga qo'yish, mahalliy bosqichlardan boshlab chempionatlar o'tkazish topshirig'i berildi. Sport natijalari hozircha yaratilgan sharoitlarga mos emasligi hamda sportga davlat tomonidan katta investitsiyalar kiritilayotganiga qaramay, erishilgan natijalar hali ham kutilganidek emasligini Prezidentimiz ochiq aytgan. Masalan, ba'zi vaqtlar yurtimiz boks maktablari olimpiadalarda medallar olgan bo'lsa, keyingi davrda natijalar pasayib ketgani, sport turlari bo'yicha tayyorlov sifati tanqid qilindi. Shu sabab, Prezident topshirig'iga binoan, sportchilarni tayyorlash va saralash bo'yicha mutlaqo yangi tizim joriy etilishi e'lon qilindi. Yangi tizimga ko'ra, murabbiy va seleksionerlarning mas'uliyati oshirilib, ularning faoliyati natijadorligiga qarab rag'batlantirish tizimi tuzilmoqda – yaxshi natija ko'rsatgan maktablar direktori va murabbiylariga ish haqining 50 foizigacha ustama belgilanishi, jamoaviy sport turlari bo'yicha musobaqalardagi g'alabalari uchun qo'shimcha mukofot berilishi nazarda tutildi. Sport maktablarida 36 ta sport turidan faqat 10 tasi o'rgatilayotgani ham tanqid qilinib, bu ko'rsatkichni oshirish, barcha ommabop sport turlarini qamrab olish vazifasi qo'yildi. Aytish joizki, yoshlar orasida futbol, kurash, yengil atletika qatori tennis, suzish, gimnastika, hatto kibersportga qiziqish mavjud, shunga ko'ra endi sport maktablari va to'garaklarda imkon qadar ko'proq yo'nalishlar ochilishi kutilmoqda.

Ilmiy izlanishlar va kadrlar tayyorlash: sport va ta'lim integratsiyasi

Ta'lim va sport sohasi chorrahasidagi eng muhim yo'nalishlardan yana biri – ilmiy tadqiqot va innovatsiyalardir. Bugungi raqobatbardosh muhitda nafaqat ta'lim jarayoni, balki sport ham ilm-fanga tayangan holda rivojlanmoqda. O'zbekistonda so'nggi yillarda ilmiy salohiyatni oshirish, olimlar va mutaxassislar tayyorlash borasida sezilarli ishlar qilinmoqda.

Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlari institutida ham 2022-yil yakunida bir guruh izlanuvchilar dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli yoqlab, ilmiy darajalarini oldi.

Yoshlar ta'limi, tarbiyasi va jismoniy kamolotini uyg'un rivojlantirishda O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining o'rni beqiyosdir. Mamlakatimizda sport va ta'lim integratsiyasini chuqurlashtirish, zamonaviy, raqobatbardosh va yuqori salohiyatli

sportchi hamda mutaxassislarni tayyorlashga qaratilgan davlat siyosati aynan ushbu universitet misolida amaliy natijalar bermoqda. Mazkur oliy ta'lim dargohi nafaqat o'zining boy an'analari, balki yuksak ilmiy salohiyati bilan ham ajralib turadi. Jumladan, O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sport sohasida ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash aynan ushbu universitet qoshida faoliyat olib boradi. 2024-yili universitetda 49 ta, 2025-yilning dastlabki yarmida esa 44 ta PhD va DSc dissertatsiya ishlari muvaffaqiyatli himoya qilinib, sport sohasida ilmiy kadrlar salmog'i sezilarli darajada oshdi. O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti butun dunyo bo'ylab sport ta'limi va ilmiy-tadqiqotlar sohasida faol xalqaro hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yimoqda. Jumladan, Xitoy, Janubiy Koreya, Germaniya, AQSH, Rossiya va Belarus kabi davlatlarning nufuzli universitetlari bilan qo'shma seminarlar, innovatsion o'quv dasturlari, ilmiy loyihalar va akademik mobilik amaliyotlari yo'lga qo'yilgan. Masalan, Koreya milliy sport universiteti rahbarligidagi delegatsiya bilan birgalikda Paralimpiya harakatining barcha yo'nalishlarida do'stona hamkorlik memorandumini imzolandi. Al-Forobiy nomidagi Qozg'iston milliy universiteti bilan memorandum asosida akademik almashinuvlar, qo'shma ilmiy tashabbuslar va xalqaro reytinglarda ishtirokni kuchaytirish rejaları belgilanib, universitet nufuzini yanada mustahkamlashga qaratilgan aniq yo'nalishlar shakllantirildi.

Sport ilmiga zamonaviy yondashuvlarni tatbiq etish borasida muhim qarorlar ham qabul qilindi. Sportchilar uchun ilmiy-ta'lim kompleks laboratoriyalari tashkil etish, tayyorgarlik jarayoniga ilg'or innovatsion texnologiyalarni joriy etish, sport tibbiyoti, sport psixologik va farmakologik ta'minotini kuchaytirish belgilandi. Xususan, sportchi yoshlarning funksional holati, psixologik tayyorgarligi, genetik va fiziologiyasini o'rganish uchun maxsus laboratoriyalar va ilmiy markazlar tashkil qilinmoqda. Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlari institutiga yangi vazifalar yuklatilib, sport sohasida innovatsion ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etish, xalqaro ilmiy hamkorlikni kengaytirish singari yo'nalishlar ustuvor etib belgilandi. Bu institut sport federatsiyalari bilan hamkorlikda yuqori malakali sportchilarni tayyorlashning ilmiy usullarini ishlab chiqish, milliy terma jamoalarning texnik-taktik va jismoniy tayyorgarligini monitoring qilib borish kabi muhim ishlarni bajarmoqda.

Ilmiy izlanishlar nafaqat sportchilar, balki sport ta'limi tizimi uchun ham muhim. Murabbiylar va jismoniy tarbiya o'qituvchilarining malakasini oshirish bo'yicha kurslar, maxsus seminarlar yo'lga qo'yildi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, sport menejmenti va marketingi kabi yo'nalishlarda yangi ta'lim dasturlari ochildi. Masalan, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida "Sport menejmenti" va "Sport marketingi" kabi bakalavriat yo'nalishlari tashkil etilib, bu soha bitiruvchilariga sport sanoatini boshqarish va tashkil etish bo'yicha chuqur bilim berilmoqda.

Yuqoridagi tahlillardan ko'rinadiki, O'zbekistonning oliy ta'lim va sport sohasidagi izchil islohotlari yagona ezgu maqsad – yoshlarimizni har tomonlama yetuk, barkamol qilib voyaga yetkazishga xizmat qilmoqda. Albatta, erishilgan yutuqlar bilan bir qatorda, hal etilishi lozim bo'lgan masalalar ham mavjud. Ta'lim sifatini oshirish, sport infratuzilmasini yanada rivojlantirish, hatto chekka hududlarda ham yoshlarga teng imkoniyatlar yaratish hamon ustuvor vazifalar bo'lib qolmoqda. Biroq amalga oshirilayotgan islohotlarning sur'ati va ko'lami shuni ko'rsatadiki, bu muammolarni bartaraf etish uchun siyosiy kuchga ega qarorlar qabul qilingan va yo'nalish to'g'ri belgilangan.

Shukurjon G'OZIYEV,
O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti prorektori,
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Psixolog huzurida

ADHD(Attention Deficit Hyperactivity Disorder) sindromi asosan bolalikda boshlanadi, lekin kattalarda ham uchrashi mumkin bo'lgan nevrologik rivojlanish buzilishidir. Bu diqqatni jamlashda qiyinchilik, giperaktivlik(haddan tashqari harakatchanlik) va impulsiv xatti-harakatlar bilan namoyon bo'ladi. ADHD odatda uchta asosiy turga bo'linadi.

Har doim chalg'iydigan bola: bu oddiy sho'xlikmi yoki ADHD?

1. Diqqat yetishmovchiligi ustun bo'lgan tur:

- dars yoki suhbat davomida diqqatini uzoq saqlay olmaslik;
- topshiriqlarni oxirigacha bajara olmaslik;
- ko'p narsani unutish(kalit, daftar va shunga o'xshash holatlar);
- tashkilotchilikda muammolari bo'ladi.

2. Giperaktivlik va impulsivlik ustun bo'lgan tur:

- bir joyda tinch o'tira olmaslik;
- doim harakatda bo'lish;
- gapni eshitmasdan, unga aralashish;
- navbat kutishni yoqtirmaslik.

3. Aralash tur:

- yuqoridagi ikkala guruh belgilari birga namoyon bo'ladi.

ADHDning kelib chiqish sabablari, qanday tashxis qo'yilishi, qachon paydo bo'lishi, davolash usullari to'g'risida O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti psixologiya fani o'qituvchisi **Mushtariy ABDULLAYEVA** bilan suhbatlashdik.

aniq namoyon bo'ladi. Ushbu sindrom turli yoshda turli belgilar bilan ko'rinadi. Misol uchun, kattalarda samarasiz ishlash, uzoq vaqt davom etadigan majlislarda o'tira olmaslik, boshqalarni chalg'itaverish, mashinani tez haydash yoki navbatda tura olmaslik kabi belgilar bilan namoyon bo'lsa, kichik yoshdagi bolalarda yig'loqilik, gapni oxirigacha tinglamaslik, diqqatning tez chalg'ishi, tinchlanish deyarli imkonsiz bo'lishi bilan namoyon bo'lishi mumkin.

– Amaliyotingizda ADHD holatlari ko'p uchrayaptimi?

– Shaxsiy kuzatuvlarim orqali bu sindrom bizda ham keng uchrayotganiga guvoh bo'lmoqdaman. Ammo amaliyotda psixolog sifatida yo'nalishim asosan bolalar emas, ayollar va o'smirlar bo'lganligi uchun bunday sindromli bolalarga ko'p duch kelmayman. Bundan tashqari, bu o'z nomi bilan kasallik

bo'lganligi tufayli bemorlar asosan nevropatolog va psixiatrlarda davolanishadi. Psixologik maslahat esa qo'shimcha yordam hisoblanadi. Shunda ham psixologdan ko'ra ko'proq klinik psixologlar yordam bera oladi.

– Oilaviy muhit, ijtimoiy sharoit, maktab ADHD rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

– Tashqi omillar to'g'ridan to'g'ri ADHD rivojlanishiga ta'sir qilmasa-da, olimlar ushbu omillar simptomlarining kuchayishiga yoki kamayishiga bilvosita ta'sir ko'rsatishini isbotladi. Ayniqsa, ota-onaning tarbiya usullari, bolaga atrofdegilarning munosabati va boshqalar ushbu sindromning rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

– O'qituvchilar ADHDga ega bolalarni qanday qilib payqab oladilar, ularga qanday yordam berishlari mumkin?

– Albatta, har qanday pedagog bunday bolalarni tez payqaydi. Muammo shundaki, ko'pincha o'qituvchilar bunday bolalarni o'yinqaroqlik, dangasalik, o'qishga qiziqishi yo'qlikda ayblashadi. Aslida bu kasallik ekanini, bunday sindromga ega bolalar miyasining ishlash funksiyasi sog'lom bolalarnikidan farq qilishini tushunishi, ular ataylab o'zlarini no'rin tutmasliklarini anglash lozim. Bolani imkon qadar derazadan uzoqroq(atrofdagi shovqin, qushlarning ovozi ularni oson chalg'itadi), o'qituvchiga yaqinroq joyga o'tqazish lozim. Shu bilan birga, ADHD sindromi haqida ko'proq o'rganish, so'ng ota-onaga bola bilan individual shug'ullanishni taklif qilish kerak.

– ADHDni davolashda qanday usullar samarali, dori vositalari, terapiya, to'liq davolash mumkinmi yoki faqat nazorat ostida ushlab turiladimi?

– Butunjahon tajribasida ADHDning hali to'liq davosi topilmagan bo'lsa-da, turli davolash usullarini qo'llash orqali ushbu sindrom belgilarini nisbatan kamaytirish yoki ulardan butunlay xalos bo'lish mumkin. Davolashda dori vositalari, turli vitaminlar, psixoterapiya, meditatsiya va sport usullarini qo'llash mumkin.

– ADHD va autizm spektri buzilishi o'rtasida qanday farqlar bor, buni boshqa ruhiy-psixologik holatlardan qanday ajratish mumkin?

– Diqqat yetishmasligi, doimiy harakatda bo'lish, insonlarning shaxsiy hududini inobatga olmaslik har ikki sindromda uchraydi. Afsuski, ikkala sindrom bir paytda, birgalikda namoyon bo'lishi ham mumkin. Asosiy farqlarga to'xtaladigan bo'lsak, autizmda bola ko'proq muloqotdan qochadi, boshqalarning ko'ziga qaramaydi va takrorlanuvchi harakatlari bo'ladi. Masalan, zinadan qayta-qayta tushib chiqish, bir joyda hadeb aylanaverish va bundan zerikmaslik. Giperaktiv sindromidagi bolalar esa bir xil turdagi faoliyatdan tez zerikkani uchun harakatlar yoki o'yinlarni juda tez o'zgartiradi.

– ADHD sindromi bor bolalarni “shayton bola” deb noto'g'ri talqin qilishadi, bu borada ota-onalar qanday yo'l tutishi kerak, ularga qanday maslahat va tavsiyalar berasiz?

– Birinchi navbatda, bolani to'g'ri qabul qilish, “Meniki hamma bolalardan farq qiladi” deb emas, balki “Bolaning o'ziga xos kuchli tomonlari bor” deb qarash lozim. Ikkinchidan esa, sabrli bo'lish – ADHDda bolalar tez chalg'iydi, injiqlik qiladi, lekin bu harakatlarni ular beixtiyor sodir etadi. Bundan tashqari, aniq kun tartibiga ega bo'lish, vazifalarni qismlarga bo'lib bajarish, stressni boshqarish ko'nikmalarini o'rganish, jazodan ko'ra rag'batni ko'paytirish, ota-ona va bola uchun alohida mutaxassis yordami har ikkala tomon uchun foydali bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, ADHD irsiy bo'lishi ehtimoli yuqori. Bundan tashqari, miya tuzilmasi va funksiyasidagi dopamin va norepinefrin moddalari muvozanatining buzilishi, atrof-muhit omillari, homiladorlik davridagi chekish, spirtli ichimlik iste'moli, erta tug'ilish sababli kelib chiqishi mumkin.

Shodiyona XUSHMURODOVA
suhbatlashdi.



– Maktab yoshidagi bolalar va o'smirlarda ADHD qanday belgilar bilan namoyon bo'ladi, diqqat yetishmovchiligi bilan oddiy chalg'ish, bolaning yoshiga xos sho'xliklar o'rtasida qanday farq mavjud?

– ADHD(diqqat yetishmovchiligi va giperaktivlik) sindromining belgilari bu diqqatning pastligi, yig'loqilik, asabiylik, qo'zg'aluvchanlik, bir joyda uzoq o'tirolmaslik kabi holatlar bilan namoyon bo'ladi. Ba'zan shunchaki giperaktiv xarakterga ega bolalarni ham ADHD bo'yicha shubha ostiga olishadi. Giperaktiv sog'lom bolalar ADHD sindromi bor bolalardan farqli ravishda hissiyatlarini boshqara oladi. Bog'chada, maktabda mas'uliyatni his qilishadi, tinchlanishini so'rasangiz, o'zini sokin tuta oladi.

– Bolada bu sindrom borligini necha yoshdan boshlab aniqlash mumkin, kattalarda-chi?

– Bu kasallikni 3–5 yoshdan aniqlash mumkin. Asosan, bolalarda 6–7 yoshda maktabga faol qatnay boshlaganda



Bilasizmi?

MATEMATIKANI BILGAN OCH QOLMAYDI

Pitsa ko'pchilik sevib iste'mol qiladigan taom. Uning vatani sifatida ko'pincha Italiya, xususan, Neapol shahri ko'rsatiladi. Ammo bu taomning ildizi qadimgi Rim va Yunoniston oshxonalariga borib taqaladi. Rimliklar yupqa non ustiga zaytun yog'i va ziravorlar, hatto xurmo va asal surib, o'choqda pishirishgan. Bu esa ularning oddiy "ko'cha taomi" hisoblangan. Ammo neapollik kambag'al dehqonlar bu non ustiga pomidor, pishloq va boshqa mahsulotlar qo'yib, hozirgi zamonaviy pitsaning prototipini yaratishgan.

Pitsa haqidagi qiziqarli faktlar:

- Birinchi rasmiy pitsaxona Lombardi's 1905-yili Nyu-Yorkda ochilgan;
- Har kuni dunyoda 5 milliarddan ortiq pitsa bo'lagi iste'mol qilinadi;
- AQSHda har yili 3 milliarddan ortiq pitsa sotiladi;
- Eng katta pitsani Janubiy Afrikada pishirishgan – uning diametri 38 metr;
- Pitsa mazali bo'lish bilan birga zararli hamdir. Uning tarkibida yuqori kaloriya, tuz va moy mavjud. Bu oziq moddalar muvozanatini buzishga xizmat qiladi. Ortiqcha kaloriya iste'moli esa semirishga olib kelishi, natijada metabolik kasalliklar xavfini oshirishi tabiiy. Shuningdek, ko'p miqdordagi tuz va to'yinmagan yog'lar yurak kasalliklarini, undagi ortiqcha oqsil va shakar miqdori

qondagi shakar darajasini oshirib qandli diabet va turli oshqozon-ichak kasalliklarini keltirib chiqarishi mumkin.

Shuning uchun tez tayyor bo'ladigan taomlar sirasiga kiradigan pitsani me'yorida iste'mol qilish salomatlik uchun muhim. Uni me'yorida iste'mol qilishni matematik nuqtayi nazardan tahlil qilish mumkin. Tasavvur qiling, o'rtog'ingiz bilan ovqatlanish shoxobchasiga pitsa yeyish maqsadida kirib menyu bilan tanishasiz. Taomnomada bir qancha tur va o'lchamdagi pitsalar narxi bilan keltirilgan bo'ladi. Masalan, "Margarita" pitsasining narxi quyidagicha (narxlar va o'lchamlar taxminan olindi):

30 cm(kichik) — 25 000 so'm.

50 cm(katta) — 50 000 so'm.

Bizga ma'lumki, pitsalar odatda doi-



ra shaklida bo'ladi. Shuning uchun doira yuzasini topish formulasidan foydalanamiz: $S = \pi \cdot r^2$, bunda $\pi = 3.14$, r — doira radiusi. 30 cm.lik pitsaning radiusi 15 cm.ga teng bo'lsa, o'z navbatida 50 cm. likniki 25 cm.ga teng bo'ladi. S_1 deb kichik pitsaning yuzasini, S_2 deb katta pitsaning yuzasini belgilaymiz.

$$S_1 = \pi \cdot 15^2 = 225\pi = 706 \text{ cm}^2$$

$$S_2 = \pi \cdot 25^2 = 625\pi = 1962.5 \text{ cm}^2$$

Endi qaysi turdagi pitsani tanlash to'g'ri tanlov ekanini tahlil qilamiz. Bu tanlovni odatda bir xil turdagi mahsulotning eng arzon narxda ko'proq miqdordagisini tushunamiz.

1-tanlov: Faraz qilaylik, kichik pitsaga ikki kishining qorni to'ymaydi, shuning uchun 2 ta buyurtma qilinadi, ya'ni 50 000 so'mga 2 ta kichik pitsa. Shunda umumiy $2 \cdot 706.5 \text{ cm}^2 = 1413 \text{ cm}^2$ yuzali pitsa iste'mol qilishga to'g'ri keladi.

2-tanlov: Agar katta o'lchamdagi pitsadan 50 000 so'mga 1 ta xarid qiladigan bo'lsak, umumiy 1962.5 cm^2 yuzaga ega bo'lgan pitsani tanlov qilishimiz mumkin.

Endi savol tug'iladi:

50 000 so'mga 1413 cm^2 yuzali pitsani yoki xuddi shu narxga 1962.5 cm^2 yuzali pitsani tanlagan ma'qulmi?

O'z-o'zidan ma'lum bo'ladi, 2-variant to'g'ri tanlov, chunki birinchisiga nisbatan miqdori ko'proq, ammo narxlar esa teng. Yana bir e'tiborli jihati shundaki, odamlar soni ham muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi.

Xullas, pitsa tanlayotganimizda uning diametri juda katta ahamiyatga ega ekanini bilib oldingiz. Agar ushbu qoidaga amal qilsangiz nafaqat mazali taomdan bahramand bo'lasiz, balki salomatligingizni saqlash imkonini ham o'z qo'lingizda deyaering.

Oybek QURBONOV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Fan va texnologiyalar

SI xorij tajribasi asosida

Bugun sun'iy intellekt nafaqat texnologiya, balki ta'lim siyosatining ajralmas qismiga aylandi. Ba'zi mamlakatlar SIni boshlang'ich ta'limga joriy etayotgan bo'lsa, boshqalari uni ehtiyotkorlik bilan chetlab o'tmoqda. Xususan, Janubiy Koreya SI ta'lim kitoblarini olib tashladi, Saudiya Arabistoni esa 1-sinf dan boshlab SI asoslarini kiritmoqda. Bu ikki qarama-qarshi yondashuv aslida har bir mamlakatning ijtimoiy-siyosiy strategiyasi va madaniy-falsafiy yondashuviga bog'liq. Shu jihatdan olib qaralganda, O'zbekiston qaysi yo'lni tanlamoqda?

Ma'lumki, Janubiy Koreya SI texnologiyalarini ishlab chiqishda dunyoda yetakchi o'rinni egallaydi. Biroq ta'lim tizimidan SIga doir kitoblarni olib tashlashi bir necha asosiy sabablar bilan bog'liq:

- **pedagogik sezgirlik.** Janubiy Koreyada bola psixologiyasi va axloqiy yetukligi muhim omil hisoblanadi. Yoshlarni texnologiyalar bilan haddan ortiq erta tanishtirish ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, degan fikr ustuvor;

- **geosiyosiy xavfsizlik.** Bu davlat o'zining murakkab geosiyosiy holatidan kelib chiqib, milliy xavfsizlikni har bir siyosiy qarorning markaziga qo'yadi;

- **an'anaviy ta'limga e'tibor.** Ta'limdagi mustahkam intizom va raqamli texnologiyalarning balansli qo'llanilishi ularning uzoq muddatli strategiyasidir.

Saudiya Arabistoni texnologik modernizatsiyaga sarmoya kiritish borasida dunyodagi eng faol davlatlardan biri. Ular SIni 1-sinf dan boshlab o'qitish orqali quyidagi maqsadlarni ko'zlamoqda:

- **iqtisodiy diversifikatsiya** — neftga qaram iqtisoddan chiqish uchun kelajakda yuqori texnologiyali sanoatni rivojlantirish;

- **global raqobatbardoshlik** — Saudiya Arabistoni yoshlarining dunyo miqyosida texnologik yetakchilikka erishishiga asos yaratish.

O'zbekiston so'nggi yillarda raqamli transformatsiya va zamonaviy ta'lim texnologiyalarini jadal tatbiq etmoqda. Shu nuqtayi nazardan quyidagilar muhim:

1. Ijtimoiy-psixologik tayyorgarlik.

2. Texnologik infratuzilma,

3. Milliy qadriyatlar bilan uyg'unlik.

4. Kadrlar tayyorlash.

O'zbekiston ikki mamlakat yondashuvini tahlil qilib, milliy manfaatlarimizga mos keladigan, puxta o'ylangan strategiyani ishlab chiqish kerak.

1. SI savodxonligini oshirishni strategik ustuvor vazifa deb belgilash: O'zbekiston kelajakda raqamli iqtisodiyotning faol ishtirokchisiga aylanishi uchun SI savodxonligini yosh avlodning fundamental ko'nikmalaridan biriga aylantirishi shart. Bu "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasining ajralmas qismi bo'lishi lozim.

2. Bosqichma-bosqich va yoshga mos yondashuv: Saudiya Arabistoni kabi 1-sinf dan boshlab SI ta'limini joriy etish shoshilinch qaror bo'lishi mumkin. Buning o'rniga, O'zbekiston bosqichma-bosqich yondashuvni qo'llashi kerak:

- boshlang'ich sinflar(1–4-sinflar)da asosiy raqamli savodxonlik, algoritmik fikrlash asoslari(masalan, o'yinlar orqali kodlash) va SI tushunchalariga yengil kirish. Bu bolalarning ijodiy va mantiqiy fikrlashini rivojlantirishga yordam beradi;

- o'rta sinflar(5–9-sinflar)da SI asoslari, ma'lumotlar tahlili, mashinani o'rganishning oddiy modellari(masalan, Scratch, Python asosida) va SIning jamiyatdagi roli bo'yicha tushunchalar berish;

- yuqori sinflar(10-11-sinflar)da va o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalarida SI aspektlari, neyron tarmoqlar, kompyuter ko'rish, tabiiy tilni qayta ishlash, shuningdek, SI axloqi va xavfsizligi bo'yicha ixtisoslashgan kurslarni joriy etish;

- har bir viloyatda eksperimental-pilot maktablar orqali tajriba-sinovlar o'tkazish;

- dasturiy vositalar xorijiy emas, mahalliy mutaxassislar tomonidan ishlab chiqilishi kerak.

3. O'qituvchilar salohiyatini oshirish: SI ta'limini samarali yo'lga qo'yish uchun malakali o'qituvchilarga ega bo'lish lozim. O'qituvchilarni muntazam ravishda SI bo'yicha qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslarini tashkil etish zarur. Universitetlarda SI pedagogikasi bo'yicha yangi dasturlarni joriy qilish kerak. OTMlarda pedagoglarga mo'ljallangan "Sun'iy intellekt asoslari" bo'yicha modulni amalga oshirish mumkin.

4. Infratuzilmani rivojlantirish: maktablar va ta'lim muassasalarini zamonaviy kompyuterlar, internet va tegishli dasturiy ta'minot bilan jihozlash SI ta'limining muvaffaqiyati uchun muhim.

5. SI etika va xavfsizligiga e'tibor berish: SI nafaqat texnik ko'nikmalar, balki axloqiy me'yorlar va xavfsizlik masalalarini ham o'z ichiga oladi. Bolalarga SIning ijtimoiy ta'siri, ma'lumotlar maxfiyligi va axloqiy me'yorlar haqida erta yoshdan tushunchalar berish maqsadga muvofiq.

6. Xalqaro tajribalarni o'rganish va moslashtirish: O'zbekiston Janubiy Koreya va Saudiya Arabistonidan tashqari Estoniya, Finlandiya, Singapur kabi davlatlarning SI ta'limidagi yondashuvlarini ham o'rganishi va o'z ta'lim tizimiga mos ravishda joriy etishi mumkin.

Gulzoda QOBULOVA,
UrDU tayanch doktoranti



Oliy ta'lim

Sirtqi ta'lim – ta'lim sifatini tushirayotganmidi?



Sirtqi ta'lim – bu ish joyidan ajralmagan holda oliy va o'rta maxsus ma'lumot olish shakli. Sirtqi ta'limning asosiy qismi (60–70 foizi) talabalarning mustaqil bilim olishiga asoslangan bo'lib, ular 1 yilda 2 marta kunduzgi ta'lim shaklida o'quv fanlaridan ma'ruzalar tinglaydi hamda semestr bo'yicha imtihonlar topshiradi.

Sirtqi ta'lim XIX asrda Germaniya, AQSH, Buyuk Britaniyada tashkil etilgan. XX asrning 20-yillarida oliy ta'lim muassasalarida sirtqi ta'lim kurslari, keyinchalik bo'limlari va bugungi kungacha amal qilayotgan shakllari paydo bo'lgan. O'zbekistonda esa 1938-yili O'rta Osiyo davlat universitetida (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti) sirtqi bo'lim tuzilib, ma'lum muddatdan so'ng tugatilgan.

Yaqinda mamlakatimizda sirtqi ta'lim shaklining tugatilishi ijtimoiy tarmoqlarda ko'plab muhokamalarga sabab bo'ldi. **Xo'sh, sirtqi ta'lim tizimi dastlab qanday maqsadda joriy etilgan edi, u o'zini bugungi kungacha qanchalik oqlay oldi va nima sababdan tugatildi?**

– Sirtqi ta'lim 2018-yilda qayta joriy etilgan bo'lib, asosiy maqsadi – mehnat faoliyatini olib borayotgan, biroq oliy ma'lumotga ega bo'lmagan fuqarolarga ishdan ajralmagan holda ta'lim olish imkoniyatini yaratishdan iborat, – deydi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi matbuot kotibi Nazokat Abduqunduzova. – Bu tizim, avval, katta yoshdagi aholi o'rtasida ta'limga bo'lgan ehtiyojni qondirish, shu orqali ularning malakasini oshirish va mehnat bozorida raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qildi.

Sirtqi ta'limning qayta tashkil etilishi oliy ta'lim qamrovini sezilarli darajada oshirdi. Ishlab yurgan fuqarolarga ta'lim olish imkoniyati yaratilishi ijobiy ijtimoiy va iqtisodiy natijalar berdi. Biroq vaqt o'tishi bilan ushbu shaklda ta'lim olish-

ning samaradorligi, akademik intizom, sifat nazorati va bilimlar chuqurligi bilan bog'liq muammolar yaqqol ko'zga tashlanib qoldi. Aniqrog'i, sirtqi ta'lim formatida tahsil olayotganlar uchun amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish, muntazam ravishda bilimni baholash hamda yuqori ta'lim standartlariga rioya qilishda muayyan qiyinchiliklar yuzaga kela boshladi. Aynan shu sabablarga ko'ra, 2025-yildan boshlab yurtimizda oliy ta'lim sifatini yanada oshirish, ta'lim jarayonida ustoz-shogird an'analarini mustahkamlash va amaliy ko'nikmalarga asoslangan o'qitish tizimini kuchaytirish maqsadida sirtqi ta'lim shakli bosqichma-bosqich tugatildi. Ma'lumot o'rnida, O'zbekistonda bugungacha 47 ta oliy ta'lim muassasasida sirtqi ta'lim shakli bor edi.

Sirtqi ta'lim shakliga qabul 2025-2026-o'quv yilidan boshlab to'xtatilgan bo'lsa-da, hozir mazkur shaklda tahsil olayotgan talabalar uchun barcha o'quv jarayonlari belgilangan tartibda davom ettiriladi. Ya'ni, ular tanlagan yo'nalishlari bo'yicha amaldagi davlat ta'lim standartlari, o'quv rejalari va fan dasturlariga muvofiq o'qishni yakuniga yetkazish imkoniyatiga egalar. Shuningdek, oldingi o'quv yillari kunduzgi shaklda tahsil olgan talaba keyingi o'quv yilidan o'qishini sirtqiga ko'chirsa bo'ladi, bunda talabalarning arizalariga asosan ularning o'qishini sirtqi ta'lim shakli mavjud guruhlariga belgilangan tartibda ko'chirish imkoniyati mavjud. Bunda talabalardan belgilangan muddat

va tartibda o'qishini ko'chirish bo'yicha ro'yxatdan o'tishlari talab etiladi.

Masofaviy va "part-time" ta'lim shakllari sirtqi ta'lim o'rnini bosa oladimi?

2025-2026-o'quv yilidan boshlab sirtqi ta'lim shakliga qabul to'xtatilgan bo'lsa-da, ishlab yurgan fuqarolarning oliy ta'lim olish imkoniyatlari to'liq cheklanmaydi. Kelgusida kunduzgi ta'limga muqobil shakllar, jumladan, masofaviy maqbullashtirilgan kunduzgi ta'lim, part-time ta'lim shakllari bosqichma-bosqich rivojlantirilib, ularga qabul ko'rsatkichlari kengaytirib boriladi. Bu esa muayyan ish o'rniga ega abituriyentlar uchun o'qish va mehnat faoliyatini bir vaqtda olib borish imkonini beradi. Masofaviy ta'lim zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda tashkil etilib, talabalarga bevosita ta'lim muassasasiga kelmasdan bilim olish imkonini yaratadi.

– O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-maydagi "Ta'lim sifatini ta'minlash va ta'lim xizmatlari ko'rsatish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" farmoniga muvofiq Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi hamda manfaatdor respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va xo'jalik birlashmalari bilan birgalikda ilg'or xorijiy tajribalarni hisobga olgan holda maqbullashtirilgan kunduzgi ta'lim shaklida kadrlar tayyorlash tartibi bo'yicha normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish vazifasi yuklangandi, – deydi Nazokat Abduqunduzova. – Maqbullashtirilgan kunduzgi ta'lim shakli talabalarga ish joyi bilan bog'liq faoliyatni davom ettirgan holda kunduzgi ta'lim tizimi asosida ta'lim olish imkonini beradigan zamonaviy va qulay ta'lim formati

bo'lib, unda ta'lim jarayoni va ish faoliyati muvozanatli tarzda olib boriladi. Normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilganidan so'ng, ushbu ta'lim shaklini joriy etish va rivojlantirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Hozirgi vaqtda mamlakatimizda 21 ta davlat oliy ta'lim muassasasida tegishli ta'lim yo'nalishlari bo'yicha masofaviy ta'lim shakli samarali yo'lga qo'yilgan. 2025-2026-o'quv yilida boshqa oliy ta'lim tashkilotlarida ham masofaviy ta'lim shakli bo'yicha kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yish bo'yicha zaruriy chora-tadbirlar, jumladan, masofaviy ta'lim platformalari yaratilib, ularni zaruriy kontentlar bilan to'ldirish ishlari tashkil qilinmoqda.

Masofaviy ta'lim shakliga o'qishga kirish umumiy tartibda amalga oshirilib, abituriyentlardan qo'shimcha majburiyatlardan talab etilmaydi. Hukumat tomonidan bu sohada tashkiliy-huquqiy mexanizmlar takomillashtirilishi, o'quv dasturlarining talabga moslashirilishi va ta'lim sifatining ta'minlanishi bo'yicha aniq choralar ko'rilmog'ida. Bu esa oliy ta'lim olishni xohlovchilarning imkoniyatlarini yanada kengaytirish va bilimga bo'lgan ehtiyojlarni to'liq qondirishga xizmat qiladi.

Qolaversa, sirtqi ta'limning masofaviyga o'zgarishi yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Endilikda magistratura bosqichida ham muqobil ta'lim, ya'ni masofaviy shaklda o'qish mumkin. Shu paytgacha magistraturada faqat kunduzgi shaklda o'qishga ruxsat bor edi.

Rivojlangan mamlakatlar allaqachon masofaviy ta'lim shakliga o'tishgan. Bizda sirtqi ta'lim yopilishidan asosiy maqsad sifatini ta'minlash, zamonaviylikni joriy etish va xalqaro ta'lim standartlariga moslashish qilib belgilangan.

Feruza JO'RAYEVA,
"Marifat" muxbiri

Dolzarb mavzu

Sohalararo tadqiqotlar olib borish muammolari

Ma'lumki, sohalararo tadqiqotlar murakkab muammolarni hal qilish uchun bir nechta fan yo'nalishlari bo'yicha bilim va usullarni birlashtirishni o'z ichiga oladi. Innovatsiyalarni rag'batlantirish va jamiyatdagi muammolarga keng qamrovli yechimlarni ishlab chiqishda samarali hisoblanadi. Ammo sohalararo tadqiqotlar samaradorligiga to'sqinlik qilishi mumkin bo'lgan ko'plab muammolar mavjud. Muloqot leksikasi va metodologik farqlar, moliyaviy qo'llab-quvvatlashdagi qiyinchiliklar bilan bir qatorda, tadqiqot natijalarini tan olish, nashr etish muammolari, ta'lim va ko'nikmalarning yetarli emasligini ta'kidlash lozim.

Zamonaviy ilm-fan sohalararo tadqiqotlar integratsiyasidir, bundan huquqshunoslik sohasi ham mustasno emas. Chunki huquqshunoslikni boshqa sohalarisiz va umuman jamiyatsiz tasavvur qila olmaymiz va aksincha, barcha ta'lim sohalarida muayyan darajada huquqiy muammolar mavjud. Shuning uchun sohalararo yondashuv nafaqat huquqiy tadqiqotlarni boyitadi, balki huquqiy muammolarni hal qilishda huquqiy topilmalarning amaliyotda qo'llanilishini yengillashtiradi. Misol uchun, O'zbekiston ilm-fanida oilaviy zo'ravonlik va kibero'g'irlik kabi jamiyatning og'riqli muammolari asosan huquqiy tadqiqot sohalarini sifatida tavsiflanadi. Shu bois, uning sabablari ko'pincha yetarlicha baholanmaydi, ya'ni masalaning sotsiologik, psixologik va iqtisodiy jihatlari ko'pincha chetda qoladi. Xuddi shu holat yo'l harakati qoidalarini buzish holatlarini kamaytirish bo'yicha tadqiqotlarda ham kuzatilmog'ida. Bunda aholi nafaqat bu masala huquqiy jihatdan to'liq o'rganilmagani, balki infratuzilma va budjet bilan bog'liq boshqa ta'sir etuvchi omillardan ham xabardor bo'lishi kerak.

Sohalararo tadqiqotlar moliyalashtirish masalasi eng

ko'p uchraydigan muammolardan. Ko'pgina moliya agentliklari va institutlar an'anaviy, bir soha doirasidagi tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlaydigan mezonlarga ega. Natijada sohalararo tadqiqotlarga asoslangan loyihalar ushbu mezonlarga mos kelmasligi mumkin va uni amalga oshirish uchun moliyaviy yordam olishda qiyinchiliklarga duch kelinadi. Bundan tashqari, sohalararo tadqiqotlar ko'pincha bir nechta institutlar yoki muassasalar o'rtasidagi hamkorlikni talab qiladi, bu esa mazkur tadqiqotlarni moliyaviy ko'mak bilan ta'minlash jarayonini yanada murakkablashtiradi. Qolaversa, ayrim moliyaviy tashkilotlar o'zlarining ustuvor yo'nalishlariga to'g'ri kelmaydigan loyihalarni qo'llab-quvvatlashni istamasligi sohalararo izlanishlar olib borishda qo'shimcha to'siqlarni keltirib chiqaradi.

Bundan roppa-rosa ikki yil avval Toshkent davlat yuridik universitetidagi hamkasblarim bilan birga inson a'zolari va to'qimalari transplantatsiyasini huquqiy tartibga solishga bag'ishlangan Jahon banki grantiga hujjat topshirish uchun loyiha ishlab chiqdik. Uni tayyorlashda amaliyotchi-transplant shifokorlarni jalb qilmasdan bo'lmasdi, ular bilan ko'plab muloqot, ya'ni ilmiy tushunchalar va atamalarini tushunishda to'siqlarga duch keldik, chunki har bir sohaning "soha tili" deb ataladigan o'z terminologiyasi mavjud. Loyiha a'zolari uchun umumiy til topish biroz vaqt va hatto din vakillarini ham qamrab olishni taqozo qildi. Chunki inson a'zolarini transplantatsiya qilishda axloqiy masalalar ham bor edi. Keyinchalik esa Jahon banki mutaxassislari e'tiboriga havola qilinganda, ular birinchi navbatda a'zolarining turli soha vakillari ekanligi va uni ijro etishning qaysidir bosqichida ular o'rtasida hamkorlik tugashi mumkin degan gumon asosida loyihani moliyalashtirishni rad etishdi.

Bundan tashqari, sohalararo tadqiqotlar natijalarini nashr etish ham o'ziga xos qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Ilmiy ishlar uchun tegishli jurnallar yoki konferensiyalarni topish qiyin bo'lishi mumkin, chunki ularning ko'pchiligi ixtisoslashgan. Yana bir jihati, sohalararo tadqiqotlar natijalarini tekshirish jarayoni murakkab, chunki tekshiruvchilar har doim ham barcha tegishli sohalarida tajribaga ega bo'lmasligi mumkin. O'zbekiston sharoitida sohalararo tadqiqotlar bo'yicha ilmiy kengashlar yo'qligi yoki ilmiy tadqiqot bir necha sohalarini qamrab olganda tegishli sohalar mutaxassislaridan iborat kengash tuzish tartibi mavjud emasligi sabab bunday tadqiqotlarni amalga oshirish mushkul.

Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, tadqiqot mavzusi bir nechta sohani qamrab olgan hollarda ham, masalan, kibernetika, tibbiyot va boshqalar, tadqiqot natijalarini muhokama qilish, odatda, garchi bunga qonunchilik ruxsat bersa-da, tegishli fan sohalarini bo'yicha yetakchi mutaxassis-olimlar ishtirokisiz, ya'ni tegishli ilmiy doiradagi AT sohasi mutaxassisi yoki olimni jalb qilish amaliyoti shakllanmagan.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, sohalararo tadqiqotlar murakkab va ko'p qirrali muammolarni hal qilish uchun katta istiqbolga ega bo'lsa-da, uning muvaffaqiyatiga to'sqinlik qilishi mumkin bo'lgan muammolar talaygina. O'zbekiston ilm-fani ham bugun ushbu muammolar bilan yuzma-yuz turibdi. Tadqiqotlarning nafaqat ilmiy, balki amaliy ahamiyatini oshirish uchun ularda ko'rilyotgan masalalarni boshqa sohalar kesimida ham ko'rib chiqish dolzarb masaladir.

Shahnoza OLMOSOVA,
TDYU "Xalqaro huquq va inson huquqlari"
kafedrasida katta o'qituvchisi

O'QUVCHILAR VA OTA-ONALAR BIRGA KURASHDILAR



Nazokat XOLMETOVA

ASRLARGA SIRDOSH BILIM MASKANI

Marifatparvar bobomiz Mahmudxo'ja Behbudiy "Dunyo imoratlari ichida eng ulug' maktabdir", degan edi. Darhaqiqat, dunyodagi rivojlangan mamlakatlar tarixidan ma'lum, ular-da jamiyat mavqeyini o'zgartirishga qaratilgan islohotlar, avvalo, ta'lim tizimidan, maktab, tarbiya masalasidan boshlanganini ko'ramiz.

Buxoro viloyati Shofirkon tumanidagi Alisher Navoiy nomidagi 4-maktab tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, bugun bu muqaddas maskan o'zining 100 yillik shonli tarixini katta faxr va iftixor bilan nishonladi. 1925-yili maktab o'zining ilk ilm toliblarini bag'riga oldi. Maktabda dastlab birinchi muallim va maktab direktori sifatida Tojikiston Respublikasi fuqarosi Sharif Rajabov faoliyat boshlagan. 1948-yili she'riyat mulkingin sultoni Alisher Navoiy tavalludining 500 yilligi munosabati bilan maktabga uning nomi berilgan. 1958-1989-yillari maktab rahbarligini Ahad Hasanov, Ismoil Qulmurodov, Sayfulla Narzullayev va Jo'raqul Latipov davom ettirdi.

Bu davr mobaynida maktabni ilk bor kumush medal bilan tamomlagan o'quvchilardan - el sevgan shoir Toshpo'lat Ahmad, respublikada tanilq mohir shifokor Ubaydulla Hakimov maktab tarixida muhim o'rin egalladi. Bu borada ilmiy va tarbiyaviy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosarlari Ergash Niyozov va Hanifa Nazarovaning ham xizmatlari beqiyos.

1989-yili maktabda 135 nafar o'qituvchi 1200 nafar o'quvchiga tahsil bergan. Ana shu yili maktabga mehnat-sevar va tashabbuskor rahbar Isoq Tolibov direktor etib tayinlandi. Uning rahbarligida ko'plab yangiliklar joriy etilib, ilm-fan yo'nalishida yuqori natijalarga erishildi. Maktab jamoasi 1997-yili "Umid nihollari" musobaqasida va "Yil maktabi" respublika tanlovida 1-o'rinni qo'lga kiritdi. 2005-yili esa fan o'qituvchilari o'rtasidagi "Kompyuter savodxonligi" tanlovida viloyat bo'yicha 1-o'rinni egalladi.

2012-yildan yosh va salohiyatli rahbar Dilshod Narzullayev direktorlik faoliyatini davom ettirib kelmoqda. Hozirgi kunda 1320 nafar o'quvchiga 129 nafar o'qituvchi ta'lim beradi. Bilim maskanidagi xalqaro va milliy sertifikatga ega 60 nafar oliy, 36 nafar 1-toifali jonkuyar pedagoglar kelajakimiz vorislariga saboq bermoqda.

So'nggi yillarda ziyofa maskanining ilm-fan va moddiy-texnik bazasi ham mustahkamlandi. "Tashabbusli budjet" loyihasi doirasida 1000 ga yaqin badiiy kitoblar, 29 ta interaktiv doska olindi, binolar kapital ta'mirdan chiqarildi. Buxoro davlat universiteti tomonidan tashkil etilgan informatika fanidan ko'p bosqichli olimpiadada 2023-2024-o'quv yilida 2 nafar, 2024-2025-o'quv yilida 1 nafar bitiruvchi muddatidan oldin talabalikka qabul qilindi.

Ushbu dargohdan el-yurt rivoji yo'lida fidoyilik

ko'rsatgan ko'plab ma'rifatparvar insonlar yetishib chiqqan. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, shoir, publisist, tarjimon Toshpo'lat Ahmad, yozuvchi Ahad Hasan, iste'dodli adib va olim Ilhom Hasanov ana shunday yurtdoshlarimizdan.

O'zining ibratli hayoti, serqirra faoliyati bilan yosh avlodga namuna bo'lgan bu insonlarning nomi hech qachon unutilmaydi, - deydi maktabning sobiq direktori Isoq Tolibov. - Bu har uchala ijodkor o'z vaqtida ushbu maktabda tahsil olgan. Ularning bosib o'tgan hayot yo'llari, ijodiy faoliyatlari haqli ravishda yosh avlod uchun ibratdir. Shu bois maktabda bu uch ijodkorga bag'ishlab maxsus muzey tashkil etildi.

O'ziga xos ma'rifat va ma'naviyat o'chog'i vazifasini o'taydigan muzeyda "Tabassum bog'i", "Gavhari jonim", "Qutlug' ostona", "Imon qal'asi" kabi o'nlab kitoblar muallifi Toshpo'lat Ahmad, "Qizilqum qizi", "Ko'hna Buxoro qissalari" kabi kitoblar muallifi Ahad Hasan, "Biri kam dunyo", "Tahlilka" asarlari bilan kitobxonlarga yaxshi tanish bo'lgan yozuvchi Ilhom Hasanov hayoti va ijodiga oid ko'plab qiziqarli ma'lumotlar, suratlar, kitoblar mujassam.

Mamlakatimizda eng ulug', eng aziz bayramimiz - Mustaqilligimizning 34 yilligi nishonlangan shu kunlarda mazkur maktab tashkil topganining 100 yilligiga bag'ishlangan tadbirda pedagoglar, yoshlar, marhum adiblarning yaqinlari, olim va ijodkorlarning ishtiroki davraga yanada fayz bag'ishladi. Ushbu muqaddas dargoh o'zining boy tarixiy an'analari, yuksak ilmiy salohiyati va fidoyi pedagoglari bilan nafaqat tuman, viloyat, balki respublika miqyosida ham o'z o'rniga ega. Bu yutuqlarning barchasi ustozlarning fidokorona mehnati, rahbariyatning to'g'ri boshqaruvi va o'quvchilarning intiluvchanligi samarasidir. Aholi jamoaning asosiy va ustuvor maqsad-vazifalari kelgusida maktab hayotida zamonaviy ta'lim metodlarini keng joriy etib, ilmiy izlanishlarni qo'llab-quvvatlash hamda iste'dodli yoshlar tarbiyasida samaradorlikka erishishdir.

Maysara NAZAROVA,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi,
"Shuhrat" medali sohibi
Laziz ZOYIROV,
TDIU professori,
Davlat auditi fakulteti dekani

1-oktabr - O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan Yakkasaroy tumanidagi 89-maktabda "Sog'lom turmush tarzi uchun" shiori ostida sport musobaqasi o'tkazildi. Mazkur bayram musobaqasi Prezidentimizning beshta muhim tashabbusi doirasida tashkil etildi.

Maktabning jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi Nurxon Mo'minova boshchiligidagi 1-"B" sinf o'quvchilari ishtirokida bo'lib o'tgan "Quvnoq spartakiada" musobaqasi bayramona bezatilgan sport zalida ko'tarinki kayfiyatda kechdi. Bolajonlarning ota-onalari ham ular bilan birga musobaqada qatnashishi o'g'il-qizlarga yanada quvonch va ko'tarinkilik bag'ishladi.

Har bir shartning chaqqonlik va epcchillikni namoyon etishga qaratilganligi, jamoa bo'lib intilish, bir-birini qo'llab-quvvatlash o'quvchilarda ijobiy xislatlarni shakllantirishda ham muhim ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, otasi yoki onasi bilan bu shartlarni birga bajarish zavqini his qilishlari bolajonlarning xotirasidan hech qachon chiqmaydigan ajoyib hodisa bo'ldi.

- Bunday musobaqalar kichikintoylar o'rtasidagi o'zaro do'stlik, mehr-oqibat, qadriyatlariga hurmat tuyg'usini ham rivojlantiradi. Bugungi "Belbog'ni ushla" milliy o'yini ham bolajonlarning qadimiy, milliy o'yinlarimizga bo'lgan qiziqishini oshirishga turtki bo'ladi, - deydi Nurxon Mo'minova.

Qaror va ijro

Yurtimizda ta'lim muassasalari soni ortishi kishini quvontiradi. Yildan-yilga chekka hududlardagi sharoiti og'ir maktablarning rekonstruksiya qilinishi, qayta qurilishi qanchadan-qancha bilimga chanqoq qorako'zlariga qanot bag'ishlaydi.

HAR BIR HUDUD BOLALARI ZAMONAVIY MAKTABLARGA MUNOSIB!

"Chortoq" mahallasi 2020-yilga qadar Toshkent viloyati Yangiyo'l tumaniga qarashli hudud sanalardi. Mahallada 1974-yili qurilgan 40-umumta'lim maktabi esa bir qavatli, kichik bino bo'lishiga qaramay, u yerda 320 nafar o'quvchi ta'lim olardi. Hududda aholi soni ortgani va yangi ta'lim muassasalariga ehtiyoj kuchaygani bois eski bino zamonaviy talablarni bajarmay qoldirdi.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2020-yil 8-sentabrdagi 443-IV-son va Senatning 2020-yil 11-sentabrdagi SQ-135-IV-son "Toshkent viloyati Zangiota, Quyichirchiq, Yangiyo'l va O'rtaqirchiq tumanlarining, Toshkent shahri Sergeli va Bektemir tumanlarining, shuningdek, Toshkent viloyati va Toshkent shahri chegaralarini o'zgartirish hamda Toshkent shahri tarkibida Yangiyo'l tumanini tashkil etish to'g'risida"gi qarorlari qabul qilindi. Unga ko'ra, Toshkent viloyati hududidan 2,288,4 gektar yer maydoni Toshkent shahri tarkibiga o'tkazildi. Shundan so'ng O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-apreldagi "2021-2023-yillarda Toshkent shahri Yangiyahoy tumanini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq ushbu hududlardagi maktablar sharoiti ham yaxshilanib, zamonaviy talablarga javob beradigan, sig'imi katta ta'lim maskanlarini qurish ishlari boshlab yuborildi. Mazkur qarorlarga ko'ra Yangiyo'l tumaniga qarashli bo'lgan 40-maktab ham Toshkent shahri Yangiyahoy tumani tarkibiga kirib, 333-maktab raqami bilan ish boshladi. Maktabning eski, 1 qavatli, kichik binosi yonginasida 4 qavatli, 720 o'rinni yangi ta'lim maskani binosi qad rostladi. Yangi o'quv yilida o'qituvchi va o'quvchilarga o'ziga muhit va ko'p yillardan buyon orzu qilishganidek shart-sharoitda darslarni boshladi.

- Bu maktabda 2011-yildan beri ishlab kelaman, ingliz tili o'qituvchisi edim, 2017-yildan boshlab direktor lavozimida ish boshladim, - deydi **333-maktab rahbari Xurshida Ziyodinova**. - Maktabimiz kam quvvatli, o'quvchilarning soni esa ko'p edi, shu sabab darslar ikki navbatda olib borilardi. Sharoit esa zamonaviy ta'lim talablariga umuman javob bermasdi. Mana, bugun keng va yorug' sinfxonalar, kompyuter zali, kutubxona, sport zallarimiz zamonaviy jihozlar bilan ta'minlandi. Endi darslarning yangi peditexnologiyalar vositasida sifatli tashkil etilishi va o'quvchilarning zamonaviy bilim darajasi oshirishi kerak bo'lardi. Maktabimizda faqat 1-4-sinf o'quvchilari o'qishardi, yuqori sinf o'quvchilari sinfxona yetishmasligidan tumanidagi 304-maktabga borib o'qishardi. Jismoniy tarbiya darslarini o'tish ham muammo edi. Ikkinchi navbatda o'qiydigan o'quvchilarning maktabdan qaytguncha kech tushib qolardi. Ota-onalar har kuni xavotir bilan bolalarining maktabdan kelishini kutib o'tirishardi. Mana, endi o'z maktabimiz zamonaviy sharoitlarga ega. Har bir darsga katta tayyorgarlik bilan kelamiz, chunki noan'anaviy metodlarni qo'llab dars tashkil etishimiz uchun barcha shart-sharoitlar yetarli, ertangi darsga tayyorgarlik ko'rishga ham vaqtimiz bor. Chunki darslar bir navbatda bo'ladi, darsdan keyin o'z ustimizda ishlaymiz, iqtidorli va bo'sh o'zlashtiruvchi o'g'il-qizlarimiz bilan alohida shug'ullanamiz.

Maktablar chiroy o'chsa, ta'mirlansa, zamonaviy jihozlangansa, o'quvchilarning ham ta'lim olishiga ishtiyor oshadi, albatta. Shunday ekan, yurtimizning har bir go'shisi va eng chekka hududlarida yashovchi bolalar uchun ham mana shunday zamonaviy maktablar, shart-sharoitlar juda muhim.

Quyichirchiq tumanidan Yangiyahoy tumaniga qo'shilgan "Yangi gulzor" mahalla fuqarolar yig'inida joylashgan 335-maktabda ham hozir qayta qurish ishlari jadal keltmoqda. 1981-yili bunyod etilgan 1 qavatli bino yonida yana 4 qavatli, 990 o'rinni maktab qad rostlamoqda. Mazkur bino dekabr oyida foydalanishga topshirilishi rejalashtirilgan.

Zirola MADATOVA

Yaxshilar yodi

"A'LOCHI DO'STLARIMDAN ORQADA QOLMAY..."

Birinchi ustoz! Birinchi muallim! Hayoting davomida, umr bo'yi yuringingning eng chuqur joylarida asrab-avaylab, yurganing hazrati inson!

Birinchi sinfga 1969-yili chiqqanman. Bizni maktabda O'zbekiston xalq maorifi a'lochisi ustoz Abdulhalim Xo'jamov domlamiz kutib olgan. Juda erka va dadil edim, boisi birinchi o'qituvchim onanimg ukasi edi. Sinfimizda 13 qiz va 13 o'g'il bola edik. Men uchun eng qiziqarli mashg'ulotlardan biri bir daqiqada "Kim qancha so'z o'qiydi?" degan musobaqa edi. Bu mashg'ulot bir haftada ikki marta o'tkazilardi. G'olib bo'lgan o'quvchiga katta qip-qizil qilib yozilgan "5" baho berilardi. U shunaqangi chiroyli, qattiq qog'ozga ajoyib bezaklar bilan yozilardi, qaragan sarimiz ko'zlarimiz quvnaq-quvnaq ketardi. Shu mukofotni olish uchun tinim bilmay o'qirdik. Ba'zida yaxshi o'qigan bolalar ko'pligidan domlamiz mukofot "5"ni yozishga shoshib qolardi. Matematika darslarimizda doskaga to'ldirib misol yozib qo'yar va qaysi javobda xato borligini topish musobaqasini o'ynatardi.

O'ylasam, ustozimiz o'sha paytdayoq hozirgi kun talablarini bajarib qo'yg'an ekan. Chunki hamma o'z partasida o'tirgan ko'yi berilgan topshiriqlarni bosh ko'tarmay ishlardi.

Qalbmida birinchi bor she'riyatga havas uyg'otgan ustozim ham shu birinchi o'qituvchim edi. Mana, oradan 56 yil o'tayotgan bo'lsa ham o'sha vaqtda yodlagan she'rlarim hamon yodimda:

*Men Lolaman, Lolaman,
Ozoda qiz bo'lamen.
Erta bilan turaman,
Yuz-qi'limni yuvaman...*

Jismoniy tarbiya va rasm darslarimiz shunaqangi qiziqarli bo'lardiki, maktabdan uyga ketgimiz kelmasdi. Sinfimiz devorida "Kimning xati chiroyli?" degan katta reklar bilan qilingan, maxsus cho'ntaklari bor sinf jihozimiz turardi. Birorta xatosi yo'q, husnixatida juda chiroyli qilib, toza, ozoda yozilgan daftarlarni o'sha cho'ntakchalarga solib qo'yardi. Daftarlarimizni shu cho'ntakchaga soldirish uchun, bilmadim, butun vujudimiz bilan yozarmidik, sinfda ajoyib bir sukunat hukmron bo'lardi. O'sha davrlarda ustozim kelajakda "Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi" tanlovining Respublika bosqichida qatnashib, "Eng namunali dars sohibi" e'tirofiga erishmog'im uchun tamal toshini qo'ygan ekan-da, deb quvonib qo'yaman.

Sinfxonamiz tor, qorong'iroq edi. Qishda pechka yoqilardi. Ba'zan maktab qorovuli ko'mir solib chiqib ketardi. Hozir o'ylasam o'sha xax, qorong'u, tor, sinfxonamiz xotiramda dunyodagi eng yorug', eng chiroyli, issiq, katta sinfxona bo'lib gavdalanadi. Tanaffusga chiqqimiz kelmasdi. Ustozimizning darsga kirishini intilqlik bilan kutardik. Har kuni bir yangilik, har kuni bir o'ziga qiziqarli, har kuni yuragimizga bir shodlik, orzular solish mahoratiga ega bo'lgan bu hazrati insondan umr bo'yi qarzdormiz. Butun sinfimiz bilan bir xil husnixatda juda chiroyli yozardik. Dastlab boshlang'ich sinf, keyinchalik ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi bo'lib ish-

ladim. Sinf jurnalini olib(hozir texnologiya kuchaygan, jurnal ham ko'tarmaysiz) darsga kirar ekanman, o'sha beg'ubor bolaligim, bir-birimizdan qolmasdan, intilib, shoshib, kimo'zarga yugurib, maktab quchog'ida yurgan chog'larimni, kitobdan bosh ko'tarolmay, bir-birimizdan qolishmay o'qib yurgan go'zal onlarimni sog'inib-sog'inib ketaman. Falakning gardishi bilan shu birinchi ustozimga kelin bo'lib tushdim. Ustozning o'z hayoti, farzandlariga bergan tarbiyasi, o'z qo'llari bilan yaratgan bog'lari, ekan ekinlari, g'ayratiga sig'may ketmon chopishlarini ko'rib hayratlarga qolib ketdim. Ustoz nafaqat maktabda, o'z oilasida ham mirishkor bog'bon, mehnatkash dehqon ekanlar. Xullas, men ajoyib bir insonning ham shogirdi, ham kelini bo'lganim bilan faxrlanam.

Mana, hozir kitobxonlik tanlovlari o'tkaziladi. G'oliblarga avtomobil sovg'a qilinadi. Agar shu tanlovlar o'sha davrlarda bo'lganida edi, biz sinfimiz bilan hammamiz birinchi o'rinni olgan bo'larmidik, deb o'ylayman. Chunki maktab kutubxonasidagi bolalar uchun ajratilgan kitoblarni talashib o'qirdik. Deyarli hamma kitobni o'qib bo'lganimiz. Eng ko'p kitob o'qigan o'quvchi maxsus g'olib uchun bezatilgan birinchi partaga o'tqazib qo'yilardi. Bu partada har kuni ikki o'quvchi almashtirilardi. Bir hafta davomida joyini hech kimga bermagan o'quvchiga turli xil qiziqarli kitoblar, "G'uncha" jurnali sovg'a qilib berilardi. Hama hikoyalarni so'zlab, she'rlarini yoddan aytib berardik. O'sha vaqtlarda darsdan keyin ustoz bizni "gruppa" deb, boshqa xonaga olib chiqib qo'yardi. U yerda bizni dunyodagi eng mehribon opamiz, yoshi keksarog' ustoz kutib olardi. Bu bizning tarbiyachimiz Salomatxon aya edi. Biz nimagadir bu ustozni ko'rishimiz bilan hammamiz tengdan bir she'rni boshlardik:

*Biz "opoy" deb chaqirar edik,
O'sha g'amxo'r muallimani.
Tanaffusda chopishar edik,
Maktab edi shodlik chamani.*

Opamiz bizni xursandchilik bilan quchoq ochib kutib olardi. She'rni aytib bo'lganimizdan keyin opamizning ko'zlarida beixtiyor yosh qalqirdi(Keyin o'qituvchi bo'lib shu o'zim o'qigan maktabimga ishga kelganida, bildim - opamizning farzandi bo'lmagan ekan). Mashg'ulotlarimiz davomida katta, rangli rasmlari bor kitobni o'qib berardi. Bu "O'zbek xalq ertaklari" deb nomlangan sevimli kitobimiz edi. Opamiz ertaklarni shunday obrazli qilib o'qirdiki, xuddi oldimizda o'sha ertak qahramonlari, yalmog'iz kampir-u aka-uka botirlar, bo'ri va chol bobo, yolg'onchi qarg'a-yu ayyor tulkilar turganday, ular bilan birga yurganday bo'lardik. Ertaklarning sirli-sehrli olami yuraklarimizga o'zining behiyosat go'zal naqshlarini solib qo'yayotganday bo'lardi.

Ustozning bag'ri keng edi. Orqada darsda foydalanilgan ko'rgazmalarni iladigan maxsus joy bo'lardi. Dars tugagach, o'sha yerga ilib

qo'yardik. Tartibsiz ilingan bo'lsa, biz qo'rqib qarab qolardik. O'zlari kelib to'g'irlab, bizga qarab kulib qo'yardi, xolos. Bu esa menga umr bo'yi ibrat bo'ldi. O'quvchim noma'qul ish qilsa, shu manzara ko'z o'ngimda namoyon bo'laveradi. Qish faslida u vaqtlari qor qalin yog'ardi. Ustozimiz bizga qorbo'ron, sirpanchiq, kimo'zarga qor ko'ptokchasini uzoqqa otish o'yinlarini o'ynatardi. Hozir juda kam o'qituvchilar bolalarning ichida birga o'ynab yuradi. U vaqtlardagi ustozlar bir-biri bilan gaplashib turishmasmikan, deb o'ylab qolaman.

Aziz ustozim, birinchi muallimim! Hayotimning eng go'zal chog'larini limmo-lim ma'no-mazmunga to'ldira olgan, xotiramda bolaligimning, go'dak qalbimning qaynoq ehtiroslariga to'g'ri yo'l ko'rsata olgan birinchi o'qituvchim! Sizga o'z qalb qo'rim bilan maktab bitmoqdaman. Bu maktabni men emas, butun sinfimiz bilan, o'sha sizning bizni doim oldinga intiltiruvchi: "Kimning xati chiroyli, Solishtirib ko'raylik!?", deb go'zal she'rlar bilan mavj-lantirib, to'lg'antirib yozayotgan paytimizdayman, go'yo. Ustoz, sizning sharafli mehnatlaringizni, bu yo'lda chekkan zahmatlaringizni butun o'qituvchilik faoliyatim davomida tobora chuqurroq his qilaverdim. O'quvchim "Insholar tanlovi"da g'olib bo'lganida sizni esladim. "Daftarlar ko'rigi"da g'olib bo'lganimizda qanchalar quvonanginizingni his qildim. Hayotimda uchragan nohaqliklar zarbasini totganimda yana sizning nur yog'ilib turgan, hech qachon tushkun kayfiyat bermagan o'sha ma'nolarga to'la boqib turguvchi ko'zlaringizni esladim va yana darhol o'zimni o'nglab orqaga chekinmay, yo'lmda dadil davom etaverdim. Shogirdlarimning she'rlari matbuot yuzini ko'rganda o'sha birinchi sinfda siz o'rgatgan, ko'zlarimizni mehr to'la ko'ksimizga qo'yib:

*Men maktabim bag'rida o'qiyman tolmay,
A'lochi do'stlarimdan orqada qolmay -*

deb mehr-muhabbat bilan aytgan she'rlarimni esladim. Ha, umr bo'yi siz o'rgatganday halol yashadim.

Izingizdan borib ustoz bo'ldim. Shuncha go'zal darslarni shakllantirish, tayyorlash, bolalar darsga kirguncha doskani to'ldirib boshqotirmalarni yozib, o'quvchini tinimsiz intilishga o'rgatishingiz uchun qanchalar mehnat sarflaganingizni o'ylar ekanman, butun mehr-muhabbatim bilan sizga boshim yerga tekkuncha ta'zim qilaman. Mehri daryo bo'lgan birinchi ustozim, sizdan bir umr minnatdormiz. Barcha shogirdlaringiz nomidan sizga ming tashakkur, ming ta'zim, ustoz. Qani endi hayot bo'lsangiz edi, shu dil izhorlarimni sizga o'qib bergan bo'lardim. Joyingiz jannat, oxiratingiz obod bo'lsin, ustozim!

Ma'rifatxon ERGASHEVA,
Shahrixon tumanidagi
17-maktabning oliy toifali ona tili
va adabiyot fani
o'qituvchisi, Xalq ta'limi a'lochisi

1-oktabr – O'qituvchi va murabbiylar kuni

USTOZ VA MURABBIYLAR, SIZGA TA'ZIM!



*Mehr nuri yog'ar doim
Ko'zingizdan, ustozlar.
Yursam deyman shu tabarruk
Izingizdan ustozlar.
Chin insonlik kitobiga
Baxt-u hikmat bitibsiz.
Odob ila bilim oldim
So'zingizdan, ustozlar.*

Sevimli shoirimiz Po'lat Mo'minning ushbu "Ustozlar" she'ri asosida yaratilgan dilrabo qo'shiqni tinglaganimda beixtiyor ko'zlarim sevinch yoshiga to'ladi. Maktabdagi birinchi o'qituvchim Xayrulla aka, sinf rahbarim Shukur aka, Abdulla aka, Muhabbat opa, adabiyot o'qituvchim Oybek Inoyatov, pedagogika bilim yurtidagi rahbarim Toji Alimova, Muhayyo Pir-muhammedova, Dilbar Oqilova, Aziza G'ulomova, Ra'no Yusupova, Shohida Shohimardonova, O'zMUdagi Ozod Sharafiddinov, Ayub G'ulomov, Umarali Normatov, Muxtor Xudoyqulov, Hulkar Olimjonova va yana ko'plab menga ilm bergan fidoyi ustozlarimni

hurmat bilan eslayman, ulardan bir umr minnatdorman.

Xalqimiz qadimdan ustozni e'zozlagan. Qur'oni karimning "Mujodala" surasi 11-oyatida: "O'lo'loh sizlardan imon keltirgan va ilm ato etilgan zotlarni (baland) daraja (martaba)larga ko'tarur", deyilgan. O'zidagi bilim va hunarni boshqalarga o'rgatuvchi ustozlarning fazilati haqida Rasullulloh(s.a.v.) shunday deganlar: "Albatta, O'lo'loh taolo, uning farishtalari, samo ahli va yer ahli, hattoki, inidagi chumoli va dengizdagi baliqqacha(barchasi) yaxshilikni(foydali ilmni) o'rgatuvchi kishiga salavot aytib turadilar". Demak, insonlarga yaxshilikni o'rgatuvchi, yomonlikdan qaytaruvchi, ilm-u hikmatdan ta'lim beruvchi ustoz va murabbiylarning borligi O'lo'loh taoloning ulug' ne'matidir.

Buyuk davlat arbobi Amir Temur bobomiz ham muallimlarga hurmatda bo'lib, o'z jasadini ustoz Mir Said Baraka qabri poyiga qo'yishlarini vasiyat qilgan ekan. Ulug' shoir va mutafakkir bobomiz Alisher Navoiy ham:

*Qilmoq erur biri muallim talab,
Qilg'ali ta'lim anga ilm-u adab, –*

deb har bir kishi ustoz ko'rishi kerakligini ta'kidlab, muallimga katta baho bergan.

1997-yildan boshlab har yili 1-oktabr – O'qituvchi va murabbiylar kuni o'lkamiz bo'ylab umumxalq bayrami sifatida keng nishonlanmoqda. Prezidentimizning har yili bayram munosabati bilan o'qituvchi va murabbiylarga yo'llagan bayram tabrik so'zlari, ilg'or, fidoyi bir guruh o'qituvchi va murabbiylarning yuksak unvonlar bilan mukofotlanishi, so'nggi sakkiz yil ichida ta'lim tizimining tamomila yangitdan isloh qilinishi, o'qituvchi va murabbiylarning majburiy mehnat va ishlardan, qog'ozbozlikdan ozod etilishi, oylik ish haqi va nafaqalar bir necha marta oshayotgani o'qituvchilarga mahorati va erishgan yutuqlariga qarab ustama haq to'lanayotgani, respublika va xalqaro fan olimpiadalarda g'olib bo'lgan o'quvchilarning ustozlarini rag'batlantirish yo'lga qo'yilganligi quvonchlidir.

Ta'lim sohasida ishlagan yillarim ko'plab o'quvchilarim respublika fan olimpiada va insho tanlovlarida qatnashib, 1-, 2-o'rinlarni egallashgan. Shogirdlarimiz mukofot olayotganida, biz ustozlar o'ksinib, chetda qolar edik. Mana, bizlarni e'zozlaydigan zamon keldi. Shunda to'lqinlanib: "Qani edi yosharib qolsam" degim keladi.

Muhtaram Prezidentimizning O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan ustozlarga yo'llagan tabrigida: "Ishonchim komil, siz, muhtaram pedagoglar, professor-o'qituvchilarimiz ta'lim sohasidagi islohotlarimizda yanada faol ishtirok etib, "Yangi O'zbekiston – ma'rifiy jamiyat" degan oliyjanob g'oyamizni amalga oshirishga munosib hissa qo'shasiz" degan oqilona so'zlari

O'zbekiston pedagoglarini yanada shijoat bilan ishlashga chorlamoqda.

Yoshlarimizning respublika va nufuzli xalqaro fan olimpiadalari, turli tanlov, musobaqalarda, shuningdek, sport yo'nalishi bo'yicha respublika, Osiyo o'yinlari, jahon chempionatlari va xalqaro sport musobaqalarida qatnashib erishayotgan yutuqlarida biz o'qituvchi va murabbiylarning ham mehnatimiz va hissamiz borligidan cheksiz faxrlanamiz.

Bayramlarda menga mehr va hurmat bilan gul taqdim etayotgan shogirdlarim qo'lidan guldastani olar ekanman, haya-jonlanib ketaman. Ko'zlarimda sevinch yoshi qalqiydi. Ularni farzandimdek ko'rib, mehr bilan bag'ringa bosaman. Shu onda o'quvchilarimga dunyodagi eng ezgu va samimiy niyatlarimni tilayman. Albatta, eng ulug' va sharaffi ustozlik kasbini tanlaganimdan behad xursand bo'laman. Shogirdlarim meni o'z onasidek ko'rib "Jamila ona" deb hurmat bilan tilga olishadi. Bu men uchun katta baxt. O'ttiz besh yil mobaynida ta'lim sohasiga sarflagan mehnatim zoye ketmaganidan sevinaman.

Bayram kunlari telefonimiz tinmaydi. Xonadonim esa mehmonlar bilan to'ladi. Ayni shunday paytda xursandligimdan go'yo boshim osmonga yetganday bo'ladi. Charchoqlarim ham unutiladi.

Ko'plab o'quvchilarim, farzandlarim, kelinim va nevaralarim mening yo'limdan borib, ustozlik va murabbiylik kasbini tanlab, hozir respublikamiz bo'ylab yosh avlodga hormay-tolmay bilim va tarbiya berib kelishmoqda.

Bog'bondan ko'rkam bog' qoladi. Yaxshidan yaxshi nom qoladi. O'qituvchi va murabbiydan esa, albatta, uning oliyjanob ishlarini davom ettiruvchi sodiq shogirdlari qoladi.

Guljamila A'ZAMXO'JAYEVA,
O'zbekiston Respublikasi
Xalq ta'limi a'lochisi,
Xalq ta'limi fidoyisi

QALBIDARYO INSONLAR...

Ustozlik – mashaqqatli, shu bilan birga sharaffi kasb. Ayniqsa, uzoq yillar davomida yosh avlodga bilim va tarbiya berib kelayotgan ustozlar mehnati tahsinga loyiq. Ustoz bo'lish uchun kishi qalbi ham daryo misol beminnat va saxiy bo'lishi lozim. Chunki bilimni, ilmni, tarbiya va ko'nikmalarini ulashish, o'zida borini boricha bolaga bera olish ham bir go'zal fazilatdir.

Yunusobod tumanidagi 273-maktabning oliy toifali geografiya fani o'qituvchisi Lola Boltayeva ana shunday fidoyi ustozlardan. Uzoq yillardan buyon o'quvchilarga geografiya fanidan saboq berib kelmoqda.

Geografiya – qiziqarli, jozibador fan. Uni o'rganish orqali bola dunyoni taniydi, fikrlash doirasi kengayadi. Us-

toz 2006-yili "Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi" ko'rik-tanlovining respublika bosqichida 1-o'rinni egallagan. Muallimning darslari respublika miqyosida ommalashtirilgan.

Dunyoning jamiki mo'jizalari va til-simlarini o'rgatuvchi ushbu fanga necha-necha yoshlarni qiziqitira olgan Lola Boltayevaning uzoq yillik mehnat faoli-



yati munosib taqdirlangan. Muallima "Xalq ta'limi a'lochisi" ko'krak nishoni, "O'zbekiston Respublikasi mustaqilligiga 25 yil" esdalik nishoni sohibasi. Eng katta unvon – yuzlab, minglab o'quvchi-

lar qalbidan joy olib, har qadamda tanib, ochiq yuz bilan "Ustoz" deya murojaat qilayotgan izdoshlarga ega bo'lishdir.

Burhon RIZOQULOV olgan surat.

Zamondosh

MAKTABIMGA QAYTGIM KELADI...



Sabohat Xudoyqulova bilan qachon tanishganimni aniq esolmayman. Lekin uning keng mulohaza yuritadigan oqila va kamtarin, bilimdon va ziyrak, tashabbuskor ayol ekanligini darrov anglaganim va o'sha paytayoq ko'nglimda bu ayol haqida bir nimalar yozishni niyat qilganim yodimda.

U shahardan ancha olisda joylashgan azim Qashqadaryo bo'yidagi G'ishtli qishlog'ida traktorchi Yovqoch aka va Oliya opalar oilasida to'ng'ich farzand bo'lib dunyoga keldi. Otasi va onasi, oddiy el iborasi bilan aytganda, suyagi mehnatda qotganlardan edi.

Qizaloq yetti yoshida maktabga bordi. A'lochi o'quvchi bo'ldi. Beshinchi sinfga o'tganida ularga yosh va serg'ayrat muallima Maxfirat Xudoyqulova adabiyot fanidan dars bera boshladi va bolalarning murg'ak qalbiga badiiy so'z sehnini joylashga erishdi. Muallimaning o'quvchilari avval maktab kutubxonasidagi, so'ngra jamoa xo'jaligi kutubxonasidagi kitoblarni o'qiy boshlashdi. O'shanda Sabohatning ilk o'qigan kitoblaridan biri Mirkarim Osimning "Ajdodlarimiz qissasi" asari bo'lgandi.

Maktabni a'lo baholarga tugatgan qizni orzulari poytaxtga yetakladi va u Nizomiy nomidagi pedagogika institutining o'zbek tili va adabiyoti fakultetiga hujjat topshirdi. Ammo unga dastlabki uchta imtihondan yaxshi baho qo'yishdi-yu, nemis tilidan yiqitishdi. Eng alam qilgani, u o'qigan qishloq maktabida xorijiy til fani mutaxassisi yo'qligi va bu fan o'qitilmaganligi edi.

Orzulari sarobga aylangan qiz boshini xam qilib qishlog'iga qaytarkan, yanagi yil puxta tayyorlanib talaba bo'lishni o'ziga maqsad qildi.

...Ammo bari chappasiga ketdi. Ko'zga yaqin qiz emasmi, uyiga sovchilar kelayotganidan bexabar edi. Ayniqsa, xo'jalik raisining o'g'ildan kelgan sovchi pixini yorganlardan ekan. Qizning "Men hali o'qiyman" deyishiga qaramay, "O'zimiz o'qitamiz" degan va'da bilan ota-onasini ko'ndirdi. Qolaversa, ota-onasi ham qizini kimsan, rais Sadat Shoymardonovday odam kelin qilaman deb turgan bo'lsa, qanday qilib yo'q deya oladi?!

Nihoyat, to'y ham bo'ldi. Baxtiga turmush o'rtog'i o'qimishli, tushunadigan yigit ekan. Qolaversa, rais bobo ham aytgan va'dasida turdi.

Sabohat Samarqand davlat universiteti filologiya fakulteti talabasi bo'lgan payti, qo'lida bir yashar chaqalog'i bor edi va shu sabab o'qishni sirtqi bo'limga o'tkazdi. Ko'p o'tmay tuman markazidagi 63-maktabda o'qituvchi bo'lib ish boshladi.

Vaqtini to'xtatib bo'lmaskan. Sabohat esa o'z ustida tinimsiz o'qib izlanishi tufayli maktab jamoasi o'rtasida o'z o'rniga ega bo'lib bordi. Kasbga bo'lgan fidoyilik, qilingan tinimsiz harakatlar muallimaning obro'yini oshirdi.

O'sha yillari ta'lim tizimida gimnaziyalar tashkil etish ishlari boshlangan bo'lib, Qamashi tumanida ham bu yangi ilm dargohini tashkil etish vazifasi tajribali maorifchi rahmatli Ibrohim Ahmedovning zimmasiga yuklatildi. Chunki ochilgan

maxsus maktabning tumanda, qolaversa, viloyatdagi nufuzi aynan o'quvchilarning reyting ko'rsatkichlari bilan baholanar edi. Buning uchun esa albatta mahoratli va bilimli o'qituvchilar o'quvchilarga dars berishi kerak edi. Gimnaziyada ona tili va adabiyot fanidan yetarli dars soati borligi, direktorning o'qituvchilarni shaxsan o'zi sinov asosida savol-javob qilayotganini eshitgan Sabohat ham ichki ishonch va ozgina hadik bilan direktor qabuliga keldi hamda suhbat va sinovlardan muvaffaqiyatli o'tdi.

– O'sha qaynoq muhit, ilmga chanqoq bolalar bilan ishlagan davrlarimni haliyam sog'inib eslayman, – deydi hikoyamiz qahramoni.

Fidoyi va jonkuyar muallimaning shogirdlari respublikamizning nufuzli oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kira boshlashi esa gimnaziya bilan birgalikda Sabohat muallimaning ham obro'si oshishi, ota-onalar e'tiboriga tushishiga sababchi bo'ldi.

Erishilgan natijalar uni gimnaziya direktorining ma'naviy va ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari lavozimiga yetakladi.

Mazkur o'quv dargohidagi o'n sakkiz yillik qizg'in faoliyat, undagi tashabbuskorlik, tashkilotchilik kabi qirralarni ochib berdi. Biroq Sabohat Xudoyqulova negadir bajarayotgan ishidan unchalik qoniqmas, o'ziga nisbatan doimiy tanqidiy munosabatda bo'lardi. Shu bois undagi bu fazilat kelgusidagi muvaffaqiyatlar uchun asos bo'ldi.

Jamiyat manfaati uchun huzur-halovatidan, lozim bo'lganida shaxsiy manfaatidan kechadigan jonkuyarlar ertami-kechmi el nazarga tushadi. Shunday ham bo'ldi. Sabohat ham rahbarlarining nazariga tushib, Xotin-qizlar qo'mitasi Qamashi tuman bo'limi raisi, tuman hokimi o'rinbosari vazifasida ish boshladi.

Xotin-qizlar masalasi har doim davrning eng dolzarb masalasi bo'lib kelgan. Garchi turmushimiz kundan-kunga yaxshilanib, farovonlashib borayotgan bo'lsa-da, ayollarga nisbatan eskicha fikrlash mavjudligi, ularning qadr-qimmatini, sha'ni toptalayotgan holatlarga barham berilmayotganligi unga tinchlik bermasdi.

Tuman hokimi muovininining zimmasida esa birinchi galda yuqoridagi holatlar bilan tanishish va bartaraf etish vazifasi turardi. Oldidagi muhim vazifani his etgan rahbar esa xotin-qizlarni qiynayotgan asosiy muammo – ishsizlik ekanligini anglab, ushbu muammoni yechishning turli yo'llari ustida bosh qotira boshladi. Hududlardagi mahalla raislari, mahalla xotin-qizlar qo'mitasi yetakchilari bilan hamkorlikni yo'lga qo'ydi.

Yolg'iz ayollar, mehnatga layoqatsiz xotin-qizlar "Ayollar daftari"ga ro'yxatga olinib, ular bilan suhbat o'tkazildi. Ishlashga ishtiyoqi va imkoniyati borlari kasbga

o'rgatish markazlarida o'qishga tavsiya etildi.

Sabohat ushbu vazifada mohir va tajribali rahbar sifatida oilaviy qadriyatlarini e'zozlash, yosh oilalarni mustahkamlash, yurtga sadoqat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishida asosiy targ'ibotchi va amaliy ko'makchi vazifasida bo'lib, hurmat va e'tibor qozondi.

O'z vazifasini teran anglagan rahbar, hamkor tashkilotlar ishtirokida muntazam tarzda oila va xotin-qizlar masalalari, jamiyatda ijtimoiy muhitni sog'lomlashtirish maqsadida "Oila obod bo'lsa mam-lakat obod bo'ladi", "Oila – muqaddas qo'rg'on", "Oila ma'naviyati", "Ayol – oila va jamiyat gulto'ji" kabi mavzularda ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot tadbirlari o'tkazib, oilalar, ayniqsa, yosh oilalarda ma'naviy muhit sog'lomligiga erishishda fidoyilik ko'rsatdi.

2019-yili Sabohat Xudoyqulovani Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Qamashi tumani bo'limi rahbari etib tayinlashdi. Shaxs kamolotini uning ma'naviyati belgilaydi. Shunday ekan, unga yuklatilgan vazifa naqadar muhimligini anglash uchun favqulodda tafakkur shart emas.

Sabohat Xudoyqulova Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Qamashi tumani bo'limi rahbari bo'lishi bilan birga, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Qashqadaryo viloyat boshlang'ich xotin-qizlar qo'mitasining raisi, tuman targ'ibot guruhi rahbari, tuman "Oqila ayollar harakati" guruhi a'zosi sifatida ham faoliyat yuritib kelmoqda. Tom ma'nodagi ma'naviyat targ'ibotchisi bo'lgan Sabohat opa, bugungi kunda Prezidentimiz nutqlarining mazmun-mohiyatini, shuningdek, hukumatimiz tomonidan qabul qilingan qaror va farmoyishlarni targ'ib etishda faollik ko'rsatmoqda.

Ma'rifatchi – avvalo bilimdon, so'ngra yaxshi notiq, umumlashirib aytadigan bo'lsak, iste'dodli ijodkor bo'lmog'i kerak. Sabohatning faoliyatiga nazar solgan kishi undagi ushbu jihatlarni payqamasligi mumkin emas.

U aholining ijtimoiy-siyosiy faolligini kuchaytirish, dunyoqarashini kengaytirish, islohotlarga daxldorlik hissini yanada oshirish maqsadida o'tkazilgan barcha targ'ibot tadbirlarini tuman hokimligi muassisligidagi "Qamashi" gazetasi, "Qamashi tuman hokimligi", "Qamashi yog'dusi" telegram kanallari, "Facebook"-da keng yoritib kelmoqda.

Respublika va Qashqadaryo viloyati televideniyesida doimiy ravishda o'z chiqishlari bilan ishtirok etishi, shuningdek, O'zbekiston radiosining "Kitob va kelajak" dasturida yoshlar o'rtasida kitobxonlik madaniyatini oshirish bo'yicha o'z fikr-mulohazalari bilan bir necha bor qatnashishi undagi ijodiy salohiyatning mahsulidir.

U tumanidagi iste'dodli yosh ijodkorlarning ijodiy ishlari jamlangan "Orzular chorlovi", "Ma'rifatdan taralgan yog'du" nomli kitoblarning chiqishi va o'quvchilar qo'lga yetib borishida bevosita rahbarlik qildi.

Xalqimizda "Qozonda bori cho'michga chiqadi", degan naql bor. Qahramoni-



mizdagi badiiy ijodga bo'lgan qiziqish, oxir-oqibat qo'lga qalam olishga undadi va keksa ijodkor Sayfulla al-Murod bilan hammualliflikda yozilgan "Sadat Shoymardonning bog'lari" nomli kitobi muxlislari tomonidan iliq kutib olindi.

Tumanda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish u boshqarayotgan idora zimmasiga yuklatilgan. U o'ziga ishonilgan bu vazifani ado etishda faqat hisobotlarga suyanib qolgan yo'q. Qachonki bir yumush bilan surishtirsangiz, "Men falon joyda yoki falon tadbirda edim" degan javobni olasiz.

Targ'ibot guruhi 20 nafar targ'ibotchidan iborat bo'lib, 4 ta yo'nalishda faoliyat olib bormoqda. Yoshlarni yot g'oyalar ta'siridan saqlash va talabalar uchun milliy liboslarning zamonaviy uslublarini ishlab chiqish hamda ommalashtirish maqsadida "Atlas" festivali, "Milliy liboslarimiz – ma'naviyatimiz ko'z gusi" mavzusida ko'rik-tanlovlar, milliy liboslar festivali, yoshi ulug' nuroniy otaxon va onaxonlar ishtirokida "Qari bilganni – pari bilmas", "O'talar so'zi – aqlning ko'zi" mavzularida "Uch avlod uchrashuvlari" muntazam ravishda o'tkazilmoqda.

Prezidentimizning 2021-yil 26-martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Ma'naviyat va ma'rifat markazi Qamashi tumani bo'limi tashabbusi bilan "Tumanimiz ziyoratgohlari", "Oilalarga ma'rifat ulashib" hamda "Teatr – bu ibratxonadir" loyihasi tashkil etilib, tumandagi mahallalarda istiqomat qiluvchi "Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari"da ro'yxatda turuvchi xotin-qizlar va yoshlarni ushbu ziyorat va tomosha tadbirlariga jalb etib kelmoqda.

Odamlarni o'z ortidan ergashtira oladigan tajribali rahbar, o'z kasbining jonkuyari, tashabbuskor va izlanuvchan, ibratli oila bekasi Sabohat Xudoyqulovaning erishayotgan yutuqlari inobatga olinib, uni "Ibratli oila" ko'krak nishoniga munosib ko'rishdi.

Darhaqiqat, Sabohat mas'ul idoraning rahbari bo'lish bilan birga turmush o'rtog'i Alisher aka bilan ikki o'g'il va bir qizni voyaga yetkazib, oliy ma'lumotli, oilali qilishdi.

Sabohat bilan suhbat jarayonida bir narsani, ya'ni uning eng avvalo o'qituvchi ekanligini, jonajon maktabidan hamon ko'ngil uzolmayotganini, ilmga, ma'rifatga chanqoq qorako'z o'quvchilarini sog'inib yashayotganini his etdim va uning "Maktabimga qaytgim keladi..." so'zini maqolamga sarlavha qildim...

Sharifjon AHMAD

Qamashi tumani

Maktabga e'tibor – kelajakka e'tibor

“Ishimga kuch sarflab, yana ishimdan kuch olaman!”



O'qituvchining bilimi, talabchanligi farzandlarimiz uchun bebaho xazina bo'lsa, dilidagi mehri, fidoyiligi, kasbiy mahorati va izlanishlari maktab va jamiyatning so'nmas umididir. Jomboy tumanidagi matematika va ingliz tiliga ixtisoslashgan 56-maktab o'qituvchisi Nodira Baratova bilan suhbatlasharkanman xayolimdan shunday fikrlar o'tdi. Uning mas'uliyatni his qilishi, o'quvchilar, o'qituvchilar-u ota-onalarga xushmuomalaligiga chin dildan havas qildim. Qisqa muddatda kishiga xushyoqadigan yana boshqa fazilatlarini ham to'la-to'kis angladim.

– *Nodira ustoz, yetuk muallima hamda katta bir ta'lim dargohining rahbarisiz. Ta'lim sohasi, tizim mutasaddilariga berilayotgan topshiriq hamda vazifalar ancha zalvorli ekanligini aytmasa ham bo'ladi. Buning ustiga ayollik, onalik vazifalaringiz ham bor. Hammasiga ulgurish uchun biroz toliqib qolmaysizmi?*

– Biroz emas, anchagina deyaering. Lekin kasbingizni sevsangiz, jamiyatga kerakli inson ekanligingizni chin dildan his qilsangiz charchoq va toliqishlar sizni zabt etolmaydi. Barcha tashvishlar, charchoqlar birgina shirin so'z orqali ruhiyatingizdan chiqib ketadi. Men ishimga kuch sarflab, yana ishimdan kuch olaman.

– *Ta'lim tizimining kechasi, buguni va ertasi haqida gap ketadigan bo'lsa, xayolingizdan nimalar o'tadi?*

– Prezidentimizning shu yil 9-sentabrda o'tkazgan videoselektor yig'ilishida hamda O'qituvchi va murabbiylar bayrami oldidan Toshkent viloyatida bo'lib o'tgan tadbirda maktab va o'qituvchilar, o'quvchilar, talaba-yoshlarga qarata aytgan fikr-mulohazalari, yaratilayotgan shart-sharoitlar meni juda xursand qildi.

Ta'lim sohasining barcha yutuqlari, erishilayotgan katta natijalar zamirida soha vakillari uchun yaratilayotgan ulkan imkoniyatlar yotibdi. O'qituvchining oylik ish haqini ming AQSH dollari miqdoriga ko'tarish, albatta, muallimni e'zozlash degani. Bugun 60 mingdan ortiq o'qituvchi shunday katta maosh olmoqda. Prezident tashabbusi bilan keyingi sakkiz yil ichida soha xarajatlar olti barobarga oshgani, besh yuzga yaqin yangi maktablar qurilgani kelajagimiz, farovonligimiz uchun xizmat qiladi.

Shunday davrda yashayapmizki, muallim ozgina beparvolikka berilsa, odatdagidan bir kungina ko'proq dam olsa va bu holat bir-ikki oyga cho'zilsa, u bu vaqt oralig'ida bir yilini yo'qotadi. O'zingiz o'ylab ko'ring, bir soat ichida dunyoda qanday yangiliklar yuz bermoqda?!

Maktabimiz o'quvchilari Jomboy tumani hududining sakson foiz qismidan qatnashadi. Bolajonlarimizning kelib-ketishidan hamisha xavotirdaman.

To'g'risi, men uchun bayram, dam olish kuni, ta'til, gap-gashtakning o'zi yo'q. O'quvchilarimiz, o'qituvchilarimiz bilan tuman markazini ham qo'shib hisoblaganda ellikdan ortiq qishloq va shahar hududini birlashtirib turibmiz. Demak, o'quvchilarimizning kelib-ketadigan masofasi har xil. Imkoniyatlari, oilaviy shart-sharoitlari ham bir-birinigiga o'xshamaydi. Ota-onalarning maktab ta'limi, o'qituvchilarning faoliyatiga oid munosabatlari ham turlicha. Bizning imkoniyatlarimiz, yashayotgan muhiti-

mizni kimdir tushunadi, kimdir tushunishni istamaydi. Ko'p yillik tajribamdan kelib chiqqan holda shuni ayta olamanki, o'qituvchiga hech qachon oson bo'lmagan. Maktab hamisha turli muammolar girdobida chir aylanib kelgan. Bas, shunday ekan, quvonchimizdan tashvishimiz, xavotirlarimiz ko'p ekanligiga ishonaverim.

– *Ha, hukumatimiz maktablar nufuzini oshirish, mavqeyini ko'tarish borasida juda ko'p tashabbuslarni ilgari surmoqda. Biroq maktablarga kelib ustozlarga do'q-po'pisa qilib, urib, haqoratlab ketayotgan zamondoshlarimiz ham uchramoqda. Siz rahbarlik qilayotgan bilim dargohida shu masalada vaziyat qanday?*

– Bu katta muammo. Deyarli hamma maktabda bor. Oilaviy sharoiti, ta'lim-tarbiyasi va qalbida qusuri bo'lgan kishigina maktabga g'araz maqsadda keladi. Dunyodagi eng pokiza joy – maktab, eng xokisor inson – o'qituvchi. Uning ta'lim berish malakasi, shaxsiga doir qanaqadir e'tirozlar bo'lsa qabul qilaman. Masalaning yechimini izlayman. Ammo kasbiga, ta'lim maskani sha'niga, ish jarayonimizga daxl qiladiganlar bo'lsa, ularga darhol javob bera olaman.

O'quvchilarimizning ota-onalari, yaqinlari uchun hamisha eshiklarimiz ochiq. Kelish-ketish, o'qituvchining dars berishiga munosabat bildirish, taklif kiritish, farzandlarining bilimini o'rganib borish ota-onalarning burchi sanaladi.

Ming afsuslar bo'lsinki, maktab jamoasini qadrsizlantirish, muqaddas dargoh nufuzini atay tushirish, o'qituvchilarning dars berish jarayoniga salbiy ta'sir o'tkazish, ishdan haydatish, aybsiz aybdorga chiqarish maqsadida qilingan tuhmatlar oldida ba'zan ojiz qolayotganligimiz ham sir emas. Eng yomoni, arizabozni qabul qilgan tashkilotlar rahbarlari, yolg'on uydirmalarga ishongan vakillar uzoqda turib yoqamizga yopishadi. Bir kishining yolg'onini butun bir maktab jamoasining rost gapidan ustun qo'yishadi. Bu borada barcha ishlar, reja va tadbirlarni butunlay yangilash lozim. Mana shunday yangilanishlar himoya qo'biqlarimizni mustahkamlaydi.

– *Sizni tajribali rahbar sifatida erkin qo'ysa va maktabingiz misolida barcha masalalar yuzasidan yagona qaror chiqarishga ruxsat berilsa, nimalardan voz kechishingiz va yana nimalarni butunlay kuchaytirishingiz mumkin?*

– Birinchi galda o'quvchilarning bilimini oshirish, ularni kasbga yo'naltirish uchun qo'limdan kelganini qilaman. O'qituvchilar o'quvchining qalbi, ko'ngliga kirib borsagina ta'limda tub burilish yuz beradi. Shuningdek, Preziden-



timiz ta'kidlab o'tganidek, ta'lim-tarbiyaning sof o'zbekona muhiti, milliy modelini shakllantirishni istayman.

Ayni pallada maktablarimizning reytingi o'qituvchilarning saviyasi, dars o'tish qobiliyati, bitiruvchilarning oliy ta'lim muassasalariga kirishiga qarab belgilanadi. Bu juda eskirgan va bugungi kun talabiga javob bermaydigan ish uslubi. Ba'zan yuqori turuvchi tashkilotlar rahbarlari ham bizdan shuni talab qiladi. Maktab reytingini shu asosda ko'tarish lozim bo'lsa, biz buni hech qanday qiyinchiliksiz uddalaymiz. Buning uchun bitiruvchilarni ota-onalar bilan kelishgan holda bir yil davomida repetitorlarga topshirasiz, tamom-vasalom. Aminmanki, ularning 90 foizi o'qishga kiradi. Ammo bundan nima naf? Katta maktab muhitida o'qigan bola bilan repetitor qo'lida ta'lim olgan bolaning har tomonlama farqi bo'ladi.

O'zi shundoq ham umumiy o'rta ta'lim maktablarimizdagi va ba'zan ixtisoslashtirilgan ta'lim dargohlaridagi muhitga achinib ketasan kishi. Eng yomoni, ota-onalarimiz farzandi yuqori sinflarga o'tgach uning hujjatini nomigagina bir maktabga topshirib qo'yishadi. O'quvchi o'sha maktabga bir oyda bir marta kelmaydi. Faqat repetitorga qatnaydi. Bunday ko'zbo'yamachilik kimga va nimaga kerak? Qing'irlik ta'limni izdan chiqarishini nahotki unutib qo'yganimiz-a?!

– *O'quvchi va ota-onalarni maktab ta'limi qoniqtirmaganidan keyin repetitor tanlashi aniq. Qolaversa, ta'lim dargohlarini tanlash huquqini cheklab bo'lmaydi.*

– To'g'ri aytasiz, tanlash huquqini cheklab bo'lmaydi. Ammo faqat repetitordan ta'lim olgan o'quvchining yo'nalishi bitta qolipga tushib qoladi. Shuningdek, ularning sun'iy intellektdan nima farqi bor?

Xullas, bugun maktab tizimida tugatish lozim bo'lgan muammolar juda ko'p. Fan olimpiadalarini o'tkazishga tubdan o'zgartirish kiritish lozim. Ba'zan shunday holatlarga ham duch kelamizki, fan olimpiadalari dasturiga kiritilgan savollar darsliklarda umuman topilmaydi. Pedagog sifatida hayron qolasan kishi, bunday beparvolik qachondan boshlangan? Qolaversa, o'qituvchilarning malakasini oshirish, muttaxislikka yo'naltirish, darsliklarni yaratish masalalarida ham qator kamchiliklar, nuqsonlar bor. Bu kabi

muammolarga barham berish maktab jamoasi bilan o'qituvchi yoki direktorning qo'lidan kelmaydi. Faqat birlashish foyda beradi.

– *Ixtisoslashtirilgan maktabga rahbar bo'lganingizdan keyin o'tgan davr ichida nimalarni o'zgartira oldingiz va ayni pallada qanday muammolarga yechim topishga qiynalyapsiz?*

– Keling, avvaliga maktabimizning yutuqlari, o'quvchi va ustozlarimizning erishayotgan natijalaridan boshlaylik. Ayni pallada o'quvchilarimizning 25 nafarida milliy va xalqaro darajadagi sertifikat bor. Shuningdek, olti nafar ingliz tili o'qituvchimizning barchasi xorijiy til sertifikatiga ega. Ular ingliz tilida aksentsiz gapiradi. Yaqinda 11-sinfda o'qiydigan qizimiz Bonujon Elmurodova Italiyada bo'lib o'tgan havaskor rassomlar tanlovida birinchi o'rinni olib keldi. Bundan tashqari, o'quvchilarmiz orasida viloyat, O'zbekiston va Osiyo musobaqalarida yuqori o'rinni olgan havaskor sportchilarimiz bor. Ikkinchi sinfda o'qiydigan Javohir Qobilov matematika fanidan o'tkazilgan xalqaro olimpiadada faxrli ikkinchi o'rinni egalladi. Natijalarimizdan xursandmiz.

Muammolardan og'iz ochishga biroz xijolat bo'lasan kishi. Sababi, mamlakat miqyosida maktablar to'liq isloh qilinmoqda. Zamonaviy tus berilib, so'nggi rusumdagi o'quv jihozlari, mukammal texnologiyalar bilan ta'minlanmoqda. Bunday maktablarning orasida biz ham bormiz, albatta. Shundan motivatsiya olib, kunni tunga ulab ishlashga o'zimizda kuch topayapmiz.

Barcha jihozlarimiz yetarli, o'qituvchilarimiz yuqori saviyali. Biroq maktabimiz moslashtirilgan binoda joylashgani uchun sinfxonalarimiz torlik qiladi. Bizda o'qishni xohlaydiganlar, ishlashni istaydigan ustozlar soni tobora oshib borayotgan bir paytda sinfxonalarning torlik qilishi meni juda tashvishlantiradi. Yonimizda xususiy maktab bor. Ularning sharoitiga hamma havas qiladi. Bizda shunday keng imkoniyatlar yo'qligidan xijolat bo'laman ba'zan.

– *Sizningcha, maktabingiz milliy brendini qanday ko'rsatkich va natijalar bevosita aks ettiradi?*

– Men ham bir savol beray sizga, mana bugun maktabimizga ilk bor keldingiz. Jurnalist sifatida sizga yoqqan, qiziqishingizni oshirgan narsalar bo'ldimi o'zi? Bir-ikki soatda nimalarni anglandingiz? Yaxshi tomonlarimizni, arzimasi jihatlarni aytib keting-da... Chetdan tashrif buyurgan kishiga hammasi tezda bilinadi-ku?

– *Ha, ustoz, sizdek talabchan direktor bor joyda nafaqat men, balki ko'pchilikka ma'qul keladigan yutuqlarning bo'lishi tayin. O'qituvchi hamda o'quvchilaringizning qo'lini ko'ksiga qo'yib salom berishi, ota-onalarning maktabga tez-tez tashrif buyurishi va dilidagilarni siz bilan o'rtoqlashishi jamoangizning katta yutug'i – milliy brendi sanaladi. To'g'risi, hammasiga havas qildim. O'z o'rnida samimiy suhbatingiz uchun sizga minnatdorlik bildiram.*

Normurod MUSOMOV
suhbatlashdi.



FAN VA TEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI

FAN VA TEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI QUYIDAGI LAVOZIMLARGA TANLOV E'LON QILADI:

<p>Iqtisodiyot kafedrası:</p> <ul style="list-style-type: none"> – dotsent 1 nafar; – katta o'qituvchi 1 nafar; – o'qituvchi 1 nafar. 	<p>Tillar kafedrası:</p> <ul style="list-style-type: none"> – dotsent 1 nafar; – katta o'qituvchi 1 nafar; – o'qituvchi 1 nafar.
<p>Pedagogika kafedrası:</p> <ul style="list-style-type: none"> – kafedra mudiri 1 nafar; – dotsent 1 nafar; – katta o'qituvchi 1 nafar; – o'qituvchi 1 nafar. 	<p>Aniq fanlar kafedrası:</p> <ul style="list-style-type: none"> – dotsent 1 nafar; – katta o'qituvchi 1 nafar; – o'qituvchi 1 nafar.
<p>Moliya va moliyaviy texnologiyalar kafedrası:</p> <ul style="list-style-type: none"> – professor 1 nafar; – dotsent 1 nafar; – katta o'qituvchi 1 nafar; – o'qituvchi 1 nafar. 	<p>Ijtimoiy fanlar kafedrası:</p> <ul style="list-style-type: none"> – dotsent 1 nafar; – katta o'qituvchi 1 nafar; – o'qituvchi 1 nafar.

TANLOVDA ISHTIROK ETISH UCHUN QUYIDAGI HUJJATLAR TAQDIM ETILISHI LOZIM:

- universitet rektori nomiga ariza;
- oliy ma'lumoti, ilmiy darajasi, ilmiy unvoni haqida diplom nusxalari;
- mehnat daftarchasi nusxasi;
- malaka oshirganligi to'g'risida;
- ilmiy va o'quv-metodik ishlari ro'yxati (3x4 shakl);
- ijodiy ishlar ro'yxati, ijodiy ishlar fotoalbomi.

HUJJATLAR E'LON CHIQQAN KUNDAN BOSHLAB BIR OY MUDDAT ICHIDA UNIVERSITET XODIMLAR BO'LIMI TOMONIDAN QABUL QILINADI.

Manzil: Toshkent shahri, Chilonzor tumani,
Diydor ko'chasi, 71-uy.
Murojaat uchun telefon: (97) 747-87-65.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGINING SANITARIYA, GIGIYENA VA KASB KASALLIKLARI ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI 2026-o'quv yili "Gigiyena – 14.00.07" yo'nalishi uchun doktorantura(DSc) va tayanch doktorantura(PhD) izlanuvchilikka

QABUL E'LON QILADI

(DSc) doktoranturaga berilgan kvota – 1 ta;
(PhD) tayanch doktoranturaga berilgan kvota – 5 ta.

1. Doktoranturaga quyidagilarga ega bo'lganlar qabul qilinadi:

- fan nomzodi yoki falsafa doktori(PhD) yoxud ularga tenglashtirilgan xorijiy davlatlarda olingan ilmiy darajalar;
- fan nomzodi yoki falsafa doktori(PhD) ilmiy darajasi yoxud ularga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalar olgandan so'ng muhim ilmiy yutuqlarga erishish, shu jumladan, fan doktori(DSc) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya tadqiqoti asosini tashkil qilishi mumkin bo'lgan ilmiy jurnallarda chop etilgan kamida uchta ilmiy maqola hamda ilmiy-amaliy konferensiyalar, seminarlar va tegishli ilmiy yo'nalishlar bo'yicha ilmiy ishlar to'plamlarida kamida ikkita tezisga ega bo'lish.

2. Doktoranturada o'qishga talabgorlar OTM yoki ITMga quyidagi hujjatlarni taqdim etadilar:

- ♦ ariza;
- ♦ qisqacha biografik ma'lumotnoma;
- ♦ mehnat daftarchasining belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasi(ishlayotgan talabgorlar uchun);
- ♦ oliy ma'lumoti, fan nomzodi yoxud falsafa doktori(PhD) yoki xorijiy davlatlarda unga tenglashtirilgan ilmiy darajaga ega bo'lganligi to'g'risidagi diplom nusxasi;
- ♦ tadqiqot mavzusi bo'yicha ilmiy ma'ruza va fan doktori(DSc) ilmiy darajasini olish uchun

tayyorlangan doktorlik dissertatsiyasi rejasining batafsil loyihasi;

- ♦ nashr etilgan ilmiy ishlar ro'yxati, shuningdek, ularning nusxalari (kamida 3 ta maqola va 2 ta tezis).

3. Tayanch doktoranturaga quyidagilarga ega bo'lganlar qabul qilinadi:

- magistr darajasiga yoxud klinik ordinaturani tugatgan(tibbiyot fanlari uchun), oliy ma'lumot to'g'risidagi diplom(mutaxassislik dasturlari bo'yicha) ega bo'lganlar;
- falsafa doktori(PhD) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya tadqiqoti asosini tashkil qilishi mumkin bo'lgan ilmiy natijalar, shu jumladan, ilmiy jurnallarda chop etilgan kamida 1 ta maqola hamda tegishli yo'nalishlar bo'yicha 2 tadan kam bo'lmagan ilmiy ishlar to'plamlariga kiritilgan ma'ruza tezislari ega bo'lganlar.

4. Tayanch doktoranturaga o'qishga talabgorlar oliy ta'lim muassasasi va ilmiy-tadqiqot muassasasiga quyidagi hujjatlarni taqdim etadilar:

- ♦ ariza;
- ♦ qisqacha biografik ma'lumotnoma (obyektivka – namuna 3,5 shakl bo'yicha o'zbekcha va ruscha shaklda);
- ♦ mehnat daftarchasining belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasi(ishlayotgan talabgorlar uchun);
- ♦ oliy ta'lim muassasasi magistraturasi diplomi

yoki klinik ordinaturani tugatganligi oliy ma'lumot (mutaxassislik dasturlari bo'yicha) to'g'risidagi diplom nusxasi;

- ♦ nashr etilgan ilmiy ishlar ro'yxati, shuningdek, ularning nusxalari (kamida 1 ta maqola va 2 ta tezis);

- ♦ pasport nusxasi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat stipendiyasi sohiblari tegishli hujjat nusxasini taqdim etadilar(mavjud bo'lsa).

5. Talabgorlarda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 14-iyundagi 211-son buyrug'iga muvofiq ilovada keltirilgan xorijiy tillarni bilish darajasini baholovchi (kamida B1 daraja) milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlari mavjud bo'lishi talab etiladi.

6. (DSc) doktoranturada o'qish uchun kirish suhbat va (PhD) tayanch doktoranturaga 14.00.07 – Gigiyena mutaxassisligi bo'yicha kirish imtihoni sanasi haqida institut rahbariyati tomonidan ma'lumot beriladi.

Hujjatlar PDF shaklida tayyorlanib, 2025-yil 5-oktabrdan 5-noyabrgacha(mazkur sana ham kiradi) Oliy ta'limdan keyingi ta'limni muvofiqlashtiruvchi Yagona elektron tizimi(<https://daraja.ilmiy.uz/>) orqali ro'yxatdan o'tgan holda qabul qilinadi.

Batafsil ma'lumot uchun quyidagi manzilga murojaat qiling: 100050,
Tashkent shahri, Oltintepa ko'chasi, 325-uy. Telefonlar: (93) 595-05-55, (97) 776-02-29.

Onamni Buoyisha muallima deyi-shardi. Uzun, oqish matodan tikilgan oddiy ko'ylakda, yilning to'rt faslida ham egnidan tushmaydigan qora rangli kostyum, yengil oyoq kiyimi... uning kiyinishi ana shu tariqa juda oddiy edi. Qishlog'imizdagi maktabda uzoq vaqt boshlang'ich sinflarga dars bergan onam nafaqaga chiqqanda ham anchagacha maktabdan ko'ngil uzolmadi. Otam Abdumomin usta, duradgor bo'lib, kun davomida odamlar xizmatida bo'lardi. Ishdan horib, charchab kech qaytar, agar ishi tig'iz bo'lsa, ish joyida tunab qolardi. Biz besh farzand: ikki o'g'il, uch qizning tarbiyamiz, osh-ovqatimizga onam qarardi. Biz bir-birimizga ergashib, bir-birimizni sudrab ulg'aydik. Onam maktabdan kech qaytadigan bo'lsa, o'tancha qizligim bois ovqat tayyorlash, uylarni tartibga keltirish mening zim-mamda edi. Opam Gulchehra chevarga shogird tushgan, maktabning oltinchi sinf o'quvchisi, darsdan kelib oqib tushlik qilib, chevarnikiga chopadi. Singlim Gulzona bog'cha yoshida, uni bog'chaga olib borish, olib kelish ham menga tayinlangan. Maktabning yuqori sinfida tahsil olayotgan akalarim faqat o'qishadi, bo'sh vaqt topib, o'tin tayyorlash, hovlidagi ekin-tikinga qarash vazifasi ularga yuklatilgan.

– Farida qizim, charchamayapsanmi, ovqatni boplabsan, maza qildik, barakalla, – maktabdan kech qaytgan onamning meni maqtab qo'yishidan xursand bo'lib, yana uy yumushlarini qilishga kirishib ketaman. Agar onam maqtab tursa, ishlarni uddalayotganimdan quvonib ketar, yana nimalardir qilib, darslardan horib-charchab qayta-

digan onamning ko'nglini olish payida bo'lardim, maktabda ham a'loga o'qiganim tufayli sinf rahbarimiz Guloyim opa meni onamga maqtar ekan:

– To'rtinchi sinf o'quvchisi bo'lsa ham, hammasini uddalayapti, bolalarimning boriga shukur. hammalari esli, hushli, – debdi onam Guloyim opaga javoban bizni maqtab...

Yillar o'tib, ulg'aydik. Hammamiz oliy ma'lumotli bo'ldik, o'qituvchilik kasbini egallaganmiz. Qizlar turli tomonlarga uzatilib, turmush tashvishlariga berildik, akalarimiz uylanishdi. Katta akam alohida

O'qituvchi onam

Hikoya

uy-joy qilib chiqib ketdi. Katta hovlida onam kichik akam bilan qoldi(Otamiz yetmish yoshdan o'tganda yurak xurujidan vafot etdi).

Bugun o'zim onaman. Qishloq maktabida dars beraman. Onamni ko'rgani, holidan xabar olgani borishga zo'rg'a vaqt topaman. Qo'ng'iroqlashamiz, telefon orqali diydorlashamiz. Bolalarim ulg'aygach, endi ishdan nari bir-rov onam yoniga borishga vaqt topaman. Bolaligimdan o'zimga tanish, har gal changini artib-tozalashga kiradigan onamning xonasidaman. Soddagina, samimiy kulib o'tiradigan onamning chehrasi o'sha-o'sha, faqat ozg'in, gavadasi cho'kkan, mushtiparim meni o'tqazgani joy topolmaydi. Sevinganidan ko'zlari yoshlanadi. Xonadagi jihozlar ilgari qanday bo'lsa, hanuz saqlanib qolgan. Eski, ammo yaroqli stol-stullar, kitoblarga liq to'la javonlar, onamning ko'zoynagi, ruchka, qalamlari stol usti-

da tartibli qo'yilgan. Xona boshqatdan ta'mirlangan, biroq jihozlar yangilanmagan. Esimda, har gal birinchi sinfni qabul qilib olganlarida, choraklar davomida o'zlashtirishga qiynalgan o'quvchilarni uyga olib kelar, "qattiq" o'qitardi. Ko'plab ota-onalar maktab yoshiga yetgan farzandini onamga olib kelar:

– Buoyisha opa, bolamni o'zingiz o'qitib bering, – derdi. Bilimlar belashuvi, tanlovlarda o'quvchilari g'olib bo'lsa, onam xuddi katta mukofot olganday sevinar, ishiga yanada ishtiyoq bilan kirishardi. Ba'zan tuni bilan qo'l mehnati orqali rangli qog'ozlardan ko'rgazmali qurollar tayyorlardir. O'qish, matematika, ona tili darslarida ko'rgazmalar orqali mavzularni shunday tushuntirar ediki, mavzular bolalarining yodida saqlanib qolardi. Tartib-intizomga katta e'tibor qaratadigan onam bizni kam erkalatar, tarbiyamizga jiddiy e'tibor bergandi. Yoshimiz ulg'ayib, hayotda o'rin topgunimizga qadar kichik tashvishlarimizni o'zimizga qo'yib berar, to'g'ri qaror qabul qilishimizni nazorat qilardi. Muntazam kitob mutolaasi bilan yashagan kishidagi eng ulug' fazilatlar kitob orqali shakllanishini men onam timsolida ko'p kuzatdim. Chunki darsga tayyorgarlik ko'rayotgan onam ertaga o'tadigan mavzularni qo'shimcha adabiyotlardan ham qidirib topar, tinimsiz o'qir, bolalarga ko'proq bilim berishga intilardi. Tinimsiz izlanish, ta'lim-tarbiyada doim yangiliklarga intilish, o'rgatish uchun o'rganishdan to'xtamaslik bizga onamizdan meros bo'lib qoldi.

Umida EGAMBERDIYEVA,
O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a'zosi

SHAPALOQ

– Hakim jo'ra,
Esingdami?
Shodmon muallimning
Meni bir shapaloq urgani?
– Ne ayb qiluvding o'shanda?
– Haqiqat yo'q ekan, – devdim.
– Nega?
– Toshqul fermerning o'g'liga,
Uch o'rmiga besh qo'yaniga...
– Keyin nima bo'luvdi?
– Qo'ng'iroq chalingach,
– Saidov sen qol, – dedi muallim.
– Yana urganmidi?
– Yo'q!
– Urganida yaxshi bo'lardi, oshna!
Bir hovlida uchta kelini-yu,
Nabiralari bilan
Yashar ekan muallim...
Tomorqa olmoqchi ekan,
Bu yog'ini tushunasan...
Toshqul fermer yer sotardi.
– Haqiqat bor, bolam, – dedi Muallim mung'ayib...
– Lekin biz yo'qmiz!..
– Nega buni bugun esladim?
– Gohida duch kelsam
Nohaqliklarga,
Yodimga olaman
Ustozimdan olgan o'sha saboqni.
Sog'inaman, jo'ra,
Menga dars bo'lgan,
Shodmon muallimning shapaloq'ini!

O'rolboy QOBIL

Havasim keladi Sizga, muallim

Havasim keladi Sizga, muallim,
Bayramga ko'chadan guldasta o'tsa.
Yillar xatin bitgan peshonangizdan
Shu kuni shamolmas, rayhonlar o'psa.
Bugungi ehtirom faqat Sizgadir,
Chin dildan aytilur bu tabrik kalom.
Bizni quchib qo'rgan ustoz – Onadir,
Sizga talpinamiz tongdan Assalom.
Paykallarda o'tdi qancha vaqtingiz,
Endi shijoat bor – endi saboq bor.
Oddiy partalardan topib baxtingiz,
Maktab yo'llaridir tole-taxtingiz.
Havasim keladi sizga, Muallim,
Bugun yurtimizda Sizga ehtirom.
Nobel mukofotini uzib o'tadi
O'shal o'quvchingiz yutug'i mudom.
Ba'zan kechalari o'ylab qolaman,
Ba'zan kechalari qiynar bir savol.
Qo'limizdan tutib-yetaklab goho,
O'rgatmasa Ustoz, nima bilardim?!
Dunyo saodati kulib agarda,
Aziz muallimim, Siz tomon yelsa.
Sizni qutlagani shu tong saharda
Samodan yulduzlar yig'ilib kelsa.
Havasim keladi sizga, Muallim,
Quyoshdek charaqlar shu kuni jahon.
Ming bitta yurakda ming bitta kalom,
Qutlashga chiqadi keng O'zbekiston!

Boborahmat MUHAMMADIYEV,
Nurobod tumanidagi
57-maktab o'qituvchisi,
Xalq ta'limi a'lochisi

Muallim yetishmay maktabimizda,
Ikki-uchta fandan berar edi dars.
Lek, shunday bo'lsa-da qishlog'imizdan,
Olim-u fozillar chiqdi zabardast.

Yurmasdi Neksiya, Treker minib,
Yayov borishardi maktabga har kun.
Qor, yomg'ir yoqqanda xuddi bizlardek
Egnida bo'lardi chopon yo po'stin.

Ular ishlagani kelardi rostdan,
Ro'zg'or tashvishini uyda qoldirib.
Saboq berar edi hech erinmasdan,
Charchoq asablarin rosa toldirib.

Bugun barcha uchun birday imtiyoz,
Ijtimoiy tarmoq beminnat dastyor.
Elektron doska, marhamat chiz, yoz!
Ilm olmoq uchun barchasi bisyor!

Menga tinchlik bermas sira bir savol:
– Ilmga ishtiyoq kamaygan, nega?
Kitoblar changlagan, kutubxona bo'sh!
Kitobxon davrasi toraygan, nega?

Bexosdan quloqqa chalindi nido:
– Ey, nodon, shunchalar pastdirmi zehning?
Qilmoqdan ne foyda tan-jonni fido?
Bermaysanmi pulga, boylikka mehning?!

“Yo'q, yo'q!” – deydi birov, – bari o'tkinchi,
Kun kelib ilmga qaytadi elim.

Shaxsiy samolyotda olis maktabga
Dars bergani borar o'sha muallim.

Sharifjon AHMAD

Mehribon o'qituvchim...

Respublikamizdagi barcha ustozlarni 1-oktabr – O'qituvchi va murabbiylar kuni umumxalq bayrami bilan asakalik pedagoglar nomidan samimiy muborakbod etaman.

Tunlari mijja qoqmay,
Hali qush qanot qoqmay,
Uyg'onadi tong otmay,
Shogirdin o'yilguvchim,
Mehribon o'qituvchim.

Har bir ishi sarishta,
O'zi misli farishta,
Fidoi, dilga rishta,
Mehnatdan tolmaguvchim,
Pokdomon o'qituvchim.

Bo'yi-basti barvasta,
El uchun kamarbasta,
Ilohim, bo'lmang xasta,
Halol-u pok yurguvchim,
Sog'-omon o'qituvchim.

Qalbi oq, misoli qor,
Dili to'la iftixor,
Vatan ishqiga unga yor,
Xalqiga jon berguvchim,
Fido-jon o'qituvchim.

Osmondagi to'lin oy,
Doim go'zal, xushchiroy,
Beqiyos ma'naviy boy,

Quyoshim –
nur sochguvchim,
Onajon – o'qituvchim.

E'zozdadir kasbingiz,
Shon-u shavkat, nasbingiz,
Qalbmidadir aslingiz,
Yuraklarda qolguvchim,
Kuch-darmon o'qituvchim.

Bergansiz puxta bilim,
Qutlasam yashnar dilim,
Ta'rifga ojiz tilim,
Siz ziyo taratguvchim,
Nur-iymon o'qituvchim.

Yangi O'zbekistonga,
Jannatmakon bo'stonga,
Dunyolarga dostonga,
Sizdir asos solguvchim,
Qahramon o'qituvchim.

Fidokor o'qituvchim!
Bunyodkor o'qituvchim!

Abdurashid ERGASHEV,
Asaka tumanidagi
26-maktab o'qituvchisi



Raximjanova Dilnavoz Sunnat qizining 09.00.03 – Falsafa tarixi ixtisosligi bo'yicha "Klassik yunon falsafasi va sharq peripatetizmida erkinlik fenomeni komparativistikasi" mavzusidagi(falsafa fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.F.01.05 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 4-oktabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi,
Yoshlar markazi binosi.
Tel/faks: (71) 227-12-24, 246-02-24; e-mail: nauka@nuu.uz

Dushayeva Soxiba Janikulovnaning 13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi(ingliz tili) ixtisosligi bo'yicha "Nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalariga kasbga yo'naltirilgan ingliz tilini o'qitishda klasterli yondashuv(biologiya ta'lim yo'nalishi misolida)" mavzusidagi(pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/07.06.2024. Ped.27.02 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 3-oktabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani,
Kichik halqa yo'li ko'chasi, 21-"a" uy.
Tel/faks: (71) 230-12-91, 230-12-92; e-mail: uzswlu_info@mail.ru

Boymurodov Najmiddin Abduqodirovichning 04.00.14 – Foydali qazilmalarni boyitish hamda 05.02.01 – Mashinasozlikda materialshunoslik. Quymachilik. Metallarga termik va bosim ostida ishlov berish. Qora, rangli va noyob metallar metallurgiyasi ixtisosliklari bo'yicha "Texnogen chiqindilardan volframni ajratib olish texnologiyasini ishlab chiqish" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Qarshi davlat texnika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/25.12.2024.T.111.05 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 29-sentabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi, 225-uy.
Tel/faks: (75) 224-02-89, 224-13-95; e-mail: kstu@kstu.uz

Sodiqova Baxtigul Ibodullayevnaning 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti ixtisosligi bo'yicha "Jon Faulzning ijodida post-modernizmning falsafiy va estetik dominantlari" mavzusidagi (filologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019. Fil.27.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 4-oktabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani,
Kichik halqa yo'li ko'chasi, 21-"a" uy.
Tel/faks: (71) 230-12-91, 230-12-92; e-mail: uzswlu_info@mail.ru

Urazaliyeva Madina G'ofurovnaning 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti ixtisosligi bo'yicha "Maya Enjelouning "Angladim qafasidagi qush nolasin" romani adabiy tanqidchilik va retseptiv poetika aspektida" mavzusidagi (filologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 4-oktabr kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani,
Kichik halqa yo'li ko'chasi, 21-"a" uy.
Tel/faks: (71) 230-12-91, 230-12-92; e-mail: uzswlu_info@mail.ru

Raxmatov Obid Ibod o'g'lining 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari ixtisosligi bo'yicha "Avtonom issiqxonalarining quyosh va issiqlik nasosli energiya ta'minoti tizimi" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Qarshi davlat texnika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.09.2020.T.111.03 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 4-oktabr kuni soat 15:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi, 225-uy.
Tel/faks: (75) 224-02-89, 224-13-95; e-mail: kstu.@kstu.uz

Alimova Nargiza Rustam qizining 09.00.02 – Ong, madaniyat va amaliyot shakllari falsafasi (estetika) ixtisosligi bo'yicha "Ayol qiyofasining vizual san'at turlarida ifodalanishi va transformatsiyasi: badiiy-estetik tahlil" mavzusidagi (falsafa fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.F.01.05 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 4-oktabr kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi,
Yoshlar markazi binosi.
Tel/faks: (71) 227-12-24; e-mail: nauka@nuu.uz

Toshmamatov Bobir Mansurovichning 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari ixtisosligi bo'yicha "Quyosh energiyasidan foydalanib qattiq maishiy chiqindilarni termik qayta ishlash samaradorligini oshirish" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Qarshi davlat texnika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.09.2020.T.111.03 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 4-oktabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi, 225-uy.
Tel/faks: (75) 224-02-89, 224-13-95; e-mail: kstu.@kstu.uz

Abduxalilova Gulbaxor Karabayevnaning 10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi ixtisosligi bo'yicha "Turizm sohasiga oid leksikaning lingvopragmatik aspekti(o'zbek va ingliz tillari misolida)" mavzusidagi (filologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil 30-sentabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani,
Kichik halqa yo'li ko'chasi, 21-"a" uy.
Tel/faks: (71) 230-12-91, 230-12-92; e-mail: uzswlu_info@mail.ru

O'rinov Murodjon Zayni o'g'lining 18.00.02 – Rayonlashtirish. Shaharsozlik. Qishloq turarjoylarini rejalashtirish. Landshaft arxitekturasini. Bino va inshootlar arxitekturasini ixtisosligi bo'yicha "Quyosh fotoelektrik modullari yordamida shahar turarjoylarining ekspluatatsiya samaradorligini oshirish" mavzusidagi(texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent arxitektura-qurilish universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.26/04.07.2023.T.11.03 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 30-sentabr kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100194, Toshkent shahri, Yunusobod tumani,
Yangishahar ko'chasi, 9-uy.
Tel/faks: (71) 142-65-85, (55) 508-02-56;
e-mail: devon@taqu.uz; murodorinov1@gmail.com

Ruziyev Oybek Avlayevichning 14.00.02 – Morfologiya ixtisosligi bo'yicha "Qandli diabeti mavjud bolalarda tana tarkibining bioimpedans tahlili va moyaklar morfometrik parametrlari bilan bog'liqligi" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/29.02.2024.Tib.93.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 26-sentabr kuni soat 12:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200126, Buxoro shahri, G'ijduvon shohko'chasi, 23-uy.
Tel/faks: (95) 911-00-50; e-mail: info@bsmi.uz

Zaripova Oysara Olimjon qizining 14.00.02 – Morfologiya ixtisosligi bo'yicha "Tajribada oziq-ovqat bo'yoqlari ta'sirida bosh miya yarimsharlaridagi morfologik o'zgarishlar tavsifi" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/29.02.2024.Tib.93.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 26-sentabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200126, Buxoro shahri, G'ijduvon shohko'chasi, 23-uy.
Tel/faks: (95) 911-00-50; e-mail: info@bsmi.uz

Ro'ziqulov Azamat Qurbonmurod o'g'lining 14.00.36 – Allergologiya va immunologiya ixtisosligi bo'yicha "Surxondaryo viloyati aholisi orasida allergik rinit, bronxial astmaning klinik-allergologik xususiyatlari va tarqalishi" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Immunologiya va inson genomikasi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.Tib.50.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 20-oktabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100060, Toshkent shahri, Akademik Yahyo G'ulomov ko'chasi, 74-uy.
Tel/faks: (71) 207-08-30; e-mail: immunology@academy.uz

Jo'rayeva Dildora Muxitdin qizining 14.00.36 – Allergologiya va immunologiya hamda 14.00.01 – Akusherlik va ginekologiya ixtisosliklari bo'yicha "Bachadon-platsenta-homila qon oqimi buzilishlarida endoteliy disfunktsiyasi rivojlanishining klinik-immunologik mezonlari va uning yechimiga shaxsiy yondashuv" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Immunologiya va inson genomikasi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.Tib.50.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 20-oktabr kuni soat 15:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100060, Toshkent shahri, Akademik Yahyo G'ulomov ko'chasi, 74-uy.
Tel/faks: (71) 207-08-30; e-mail: immunology@academy.uz

Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti jamoasi bo'lim mudiri, pedagogika fanlari doktori, dotsent Raushan Medetovaga validasi **TINIMGUL onaning** vafoti munosabati bilan ta'ziya izhor qiladi.

Obuna – 2026

G'alati mavsumning jozibadorligi qayerda yoki davriy nashrlarga an'anaviy obunani kim qanday qarshi olmoqda?

Har yili sentabrda navbatdagi yil uchun obuna boshlanganida bu g'alat mavsumni bexijolat o'tkazish yo'sinlari ko'rib chiqiladi. Umuman, gazeta yoki jurnal o'qishga da'vat etishning o'zi qanchalik to'g'ri? Haq gap, muddatli to'lov(bo'lib berish) orqali kreditga muzlatkich olish bizni maishiy jihatdan yuksaltiradi. Ammo ma'naviy jihatdan qachon ravnaqda bo'lamiz? Kitob o'qimasak, oynayi jahonni ko'rmasak, ovoznigorni tinglamasak, jurnallarni varaqlamasak, bu ishtiyoq o'lgur ko'nglimizda qachon paydo bo'ladi?

U yoki bu ishxona rahbari peshqadam xodimni mukofotlayotib qimmatbaho narsalar o'rniga biror davriy nashrga obuna kvitansiyasini sovg'a qilsa, yomonmi? Bemorning oldiga meva-cheva ko'tarib borgandan ko'ra(buni oila a'zolari joyiga qo'yishadi) zerikmay o'tiring deb bir dasta gazeta eltib bersangiz xursand bo'lmaydimi?

Bir kishini bilaman. Har yili bir oylik maoshini deyarli yuz foiz o'zicha zarur deb bilgan nashrlarga obunaga sarflaydi. Bugungi dolg'ali davrda ham obuna masalasiga katta e'tibor bilan qarab kelayotgan ehtiromga munosib bu zot – "Ma'naviyat fidoiyisi" ko'krak nishoni sohibi, Guliston davlat universiteti professori Ravshanbek hoji Mahmudovdir. Umuman, Mahmudovlar oilasida falsafa doktorlarining ko'pligi u yoki bu nashrlarni doimiy mutolaa qilayotganliklaridan bo'lsa kerak, desak ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Yaqin o'tmishda savob ishni har kim, har kuni qilishi kerak, degan shiorimiz bo'lguvchi edi. Bizningcha, gazetani ham har kim, har kuni o'qishi kerak. Kun bo'yi avtobusda ham, bekatda ham, xiyobon-u, hatto yo'lda piyoda ketayotganda ham telefonidan ko'z uzmaydigan, ko'proq vaqtini behuda ma'lumot va axborotlarga sarflayotgan hamyurtlarimiz mundaq o'tirib, gazeta ham o'qisalar asakalari ketadimi?

Majburiy obuna degan g'alati mavsumni kasbiy nashrlarga har qanday holatda o'tkazish kerak. Hamkasblar o'rtasida yaratilgan yangi tajribalar bilan gazeta bo'lmasa kim tanishtiradi? Kishi o'z sohasidagi eng so'nggi tahliliy ma'lumotlarni qayerdan bilib oladi? Ixchamlik va tezkorlikni xush ko'radigan ijtimoiy tarmoqlarda tahliliy maqolalarga o'rin ajratiladimi o'zi?

Bir so'z bilan aytganda, gazeta yoki jurnal o'qimaslik avomlik sari eltadi. Ayniqsa, kasbiy nashrlarni(xususan, pedagogik) ta'lim sohasi vakillari ko'zga surtib o'qishlari, ulardan beminat foydalanishlari kerak.

16-sentabr kuni O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi tashabbusi bilan Guliston shahridagi 2-maktabda "Bosma OAV: Kecha, bugun va ertaga" mavzusida muallimlar va muharrirlar o'rtasida bevosita muloqot bo'lib o'tdi. Tadbirni viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi bo'lim boshlig'i Hilola Nazarbekova ochib berdi.

Mamlakatimizning bir guruh pedagogik nashrlari bosh muharrirlari ishtirok etgan mazkur uchrashuvda O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi raisi vazifasini bajaruvchi Xolmurod Salimov zaldagilarga mehmonlarni tanishtirar ekan, bolalar va yoshlar ta'lim-tarbiyasida, ularni ma'naviy yuksaltirishda vaqtli matbuotning, xususan, gazeta va jurnallarning o'rni beqiyosligini alohida ta'kidladi.

Mashvaratni "Ma'rifat" va "Учитель Узбекистана" gazetalarini bosh muharriri Husan Nishonov anchayin kuyunchaklik bilan davom ettirdi. Aytildiki, 2025-yil uchun sirdaryolik ta'lim xodimlari bir dona ham "Ma'rifat" gazetasiga obuna bo'lmagan.

"Gulxan" jurnali bosh muharriri Zahro Hasanova, "Tong yulduzi" gazetasi bosh muharriri Feruza Odilova, "G'uncha" jurnali bosh muharriri Dilfuza Shomalikovaning bolalar nashrlariga bo'lgan munosabat yuzasidan hasratlaridan chang ko'tarildi. Sardoba tumanidagi 9-maktab o'qituvchisi Ozoda Gulmurodova, Boyovut tumanidagi ixtisoslashgan maktab o'qituvchisi Sayyora Ernazarovalar esa sohada o'zlarini tashvishlantirayotgan va yechimini kutayotgan qator mavzular haqida so'z yuritdi. Maqolamiz avvalida aytilgan gaplarning ham kattagina qismi mazkur uchrashuvning mazmun-mundarijasini belgilab berdi.

Ha-da, yosh avlodni yurtsevar qilib tarbiyalash, murg'ak ko'ngillarni, umuman millat bolalarini ma'naviy jihatdan, tenglar ichida teng qilib kamolga yetkazish haqida bugun gapirmasak, qachon gapiramiz? Muharrirlarning gazetaxonlar bilan yuzma-yuz muloqoti yangi-yangi g'oyalarning paydo bo'lishiga olib keldi, deysish mumkin. Rost-da, o'quv-tarbiya jarayonini yaxshi yo'lga qo'yish uchun qanday komponentlar bo'lishi kerak? Yaxshi o'qituvchi, yaxshi darslik, odobli o'quvchining o'zi bu g'oyat muhim jarayonni ko'ngildagidek tashkil etish imkonini beradimi? O'qituvchi o'z malakasini oshirib bormasa, peshqadam hamkasbining tajribasini o'zlashtirmasa, tashabbuslarni faol qo'llab-quvvatlamasa yaxshi muallim bo'la oladimi? Ko'rgazmali qurollar ahamiyatini yo'qotganmi? An'anaviy metodikalar qaysi jihatlari bilan afzal? Ustoz shogirdini qay darajada jazolashi maqsadga



muvofiq? Oramizda afsonaviy muallim rahmatli Oqilxon Sharafiddinovga o'xshab yaxshi o'qiydigan 1-sinf o'quvchisini rag'bat uchun yelkasiga o'tqazib maktabga olib boradigan muallimlar bormi? Otalar o'z farzandi axloq-odobidan, maktabdagi yurish-turishidan xabar olishga vaqt topayaptimi? Mahalla noziri bitiruvchi sinflarda qancha o'quvchi borligini biladimi? Xususiy maktab davlat ta'lim muassasasi bilan qanchalik raqobatda? Maktabingiz reytingda nechanchi o'rinda ekanligini bilasizmi? Guliston shahridagi 2-maktabda bo'lib o'tgan muloqotda bu kabi savol-javoblar, fikr va mulohazalar, yechimini kutayotgan muammolar haqida ko'p gapirildi. Biroq obuna mavsumi jarayoni muallim va o'quvchi timsolida hech narsa emasligi ham bilinib turdi. Shu kuni yosh avlod ta'lim-tarbiyasida gazeta va jurnallarning o'rni beqiyos ekanligini anglab yetganlar ham oz emasligi kishini quvontiradi, albatta.

O'qituvchilar, maktab direktorlarining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosarlari, kutubxonachilar, yuqori sinf o'quvchilari tomonidan taklif etilgan va muharrirlar tomonidan qarshi olingan mulohazalar, jurnalistlar tomonidan berilgan savollar ko'lami kengligi pedagogik nashrlarga bo'lgan munosabatlar anchayin jiddiy masala ekanligini namoyon etdi.

Bir so'z bilan aytganda, muharrirlarning Gulistonda gazetaxonlar bilan bo'lgan mazkur uchrashuvi o'qituvchi va o'quvchilarda, shuningdek, yosh qalblarda u yoki bu pedagogik nashrlarga muhabbat paydo qildi, deb aytak bo'ladi. Amalda qanday holat bo'lganini esa vaqt ko'rsatadi.

Boyjigit ABUDULLAYEV,
O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi
Sirdaryo viloyat bo'limi raisi



Marifat

TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi,
O'zbekiston oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi,
O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari
kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Indeks: 149 150. V-6018. Tiraji 6117.

Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan.
Qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFONLAR:

Tel/faks: (71) 212-01-50



"Ma'rifat"dan materiallarni ko'chirib bosish tahririyat ruxsati bilan amalga oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqiriz qilinmaydi va mualifga qaytarilmaydi.

Mobil ilovani yuklab olish uchun ushbu QR-kodni skanerlang:

(t) – tijorat belgisi.



Dizayner: Malohat Toshova.
Navbatchi muharrir: Faxriddin Rahimov.
Navbatchi: Bobomurod Xudoyberdiyev.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

MANZILIMIZ:
100099, Toshkent shahri,
Darvozakent ko'chasi, 60-uy.
Veb-sayt: www.marifat.uz

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
Korxonalar manzili: Toshkent shahri,
Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.